



TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

O'RGANILAYOTGAN MAMLAKATLARDA TIL VAZIRIYATI VA SIYOSATI

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

BOSH ILMIY-METODIK
MARKAZ

2022



TOSHKENT

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ПЕДАГОГ ВА РАЎБАР КАДРЛАРИНИ
ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШНИ
ТАШКИЛ ЭТИШ БОШ ИЛМИЙ-МЕТОДИК МАРКАЗИ**

**ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК УНИВЕРСИТЕТИ
ТИЛ, ТАРЖИМА ВА КОНСАЛТИНГ МАРКАЗИ**

**“ТАСДИҚЛАЙМАН”
Марказ директори в.в.б.**

У.С.Норалиев

_____ “ _____ ” _____ 2020 йил

Филология ва тилларни ўқитиш: (хиндий тили)

**ЎРГАНИЛАЁТГАН МАМЛАКАТДА ТИЛ ВАЗИЯТИ ВА
СИЁСАТИ (ҲИНДИСТОН)**

МОДУЛИНИНГ

Ўқув-услубий мажмуаси

Малака ошириш курси йўналиши: Филология ва тилларни ўқитиш: (хиндий тили)

Тингловчилар контингенти: Олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари

Тошкент-2022

Модулнинг Ўқув-услубий мажмуаси Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини Мувофиқлаштирувчи кенгашининг 2022 йил _____даги _____сонли баённомаси билан маъқулланган ўқув дастури ва ўқув режасига мувофиқ ишлаб чиқилган.

Тузувчи: ТДШУ, “Жанубий ва Жануби-Шарқий Осиё тиллари” кафедраси доценти, ф.ф.н. С.С.Нурматов

Такризчи: ТДШУ, “Жанубий ва Жануби-Шарқий Осиё тиллари” кафедраси профессори, ф.ф.д. У.У.Муҳибова

Ўқув-услубий мажмуа ТДШУ Илмий Кенгашининг 2022 йил _____даги _____сонли қарори билан тасдиққа тавсия қилинган.

МУНДАРИЖА

I. ИШЧИ ДАСТУР

II. НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАНЗУЛОТ МАТЕРИАЛЛАРИ

1-мавзу: Тилшунослик, социолингвистика, тил вазияти

2-мавзу: Ҳиндистондаги тил манзараси

3-мавзу: Тил вазияти ва унинг аспектлари

4-мавзу: Регионал тил вазияти (Ражастхон штати мисолида)

III. ГЛОССАРИЙ

IV. АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

I. ИШЧИ ДАСТУР

Дастур Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда тасдиқланган “Таълим тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон, 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сон, 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон ва 2020 йил 29 октябрдаги “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармонлари, 2012 йил 10 декабрдаги “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1875-сон, 2020 йил 16 апрелдаги “Шарқшунослик соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4680-сон ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли Қарорларида белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилган бўлиб, у олий таълим муассасалари педагог кадрларининг касб маҳорати ҳамда инновацион компетентлигини ривожлантириш, соҳага оид илғор хорижий тажрибалар, янги билим ва малакаларни ўзлаштириш, шунингдек амалиётга жорий этиш кўникмаларини такомиллаштиришни мақсад қилади.

“Ўрганилаётган мамлакатда тил вазияти ва сиёсати (Ҳиндистон)” модули ўқитилиши жараёнида эгалланадиган билим, малака ва кўникмалар ихтисослик фанлар блокига кирадиган фанлар билан интеграллашуви натижасида тингловчиларнинг чет тили коммуникатив компетенцияларини (лингвистик, ижтимоий-лингвистик, стратегик, ижтимоий-маданий) ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади, чунки филологнинг касбий компетенцияси назарий фанларни ўқитиш мажмуида шаклланади.

Ушбу дастур тил тарихи, назарий грамматика, назарий фонетика каби тилшуносликнинг фундаментал йўналишларини ҳисобга олган ҳолда тузилган. Мамлакатдаги тилнинг ривожланишига доир олиб борилаётган сайъи-ҳаракатларнинг атрофлича ўрганилиши назарда тутилган.

Ушбу мажмуа янги педагогик техногоялар ва тилшуносликнинг замонавий йўналишлари асосида тубдан янгиланишни илгари суради ҳамда тингловчиларнинг таълим бериш сифатини кўтариш мақсадида дастурда турли эффектив ва замонавий педагогик технологиялар ишлатилган.

Модулнинг мақсади ва вазифалари

Фанни ўқитишдан мақсад – тингловчиларда “Ўрганилаётган мамлакатда тил вазияти ва сиёсати (Ҳиндистон)” модулининг методологик тамойиллари, асосий тушунча ва тамойиллари бўйича, хусусан, Ҳиндистондаги лингвистик ва экстралингвистик вазият, барча соҳаларда адабий адабий тилини кенг тарқатиш орқали ёзма ва оғзаки мулоқотни таъминлаш каби масалалар бўйича асосий тушунча ва мутахассислик профилига мос билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш ва такомиллаштиришдан иборат.

Модул бўйича тингловчиларнинг билими, кўникмаси, малакаси ва компетенцияларига қўйиладиган талаблар

“Ўрганилаётган мамлакатда тил вазияти ва сиёсати (Ҳиндистон)” модулини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида:

Тингловчи:

- ўрганилаётган мамлакатдаги социоллингвистик вазият, мамлакатнинг этник таркиби ва унинг тиллари;
- тил ҳолати тушунчаси ҳамда лисоний вазиятларнинг турлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари;
- ўрганилаётган мамлакатда этнолингвистик вазият;
- стандарт (давлат) ва ностандарт (нодавлат) тилларнинг ижтимоий фаолият соҳалари;
- билингвизм (икки тиллик) ва кўп тиллик, давлат тили тушунчаси, ўрганилаётган мамлакатда амалдаги тил сиёсати;
- жамиятнинг (жамият аъзоларининг) давлат тилига муносабати;
- жамиятдаги лингвистик вазиятни тавсифловчи омиллар ҳақидаги *билимларга* эга бўлиши лозим.

Тингловчи:

- “Ўрганилаётган мамлакатда тил вазияти ва сиёсати (Ҳиндистон)” модулининг асосий йўналишларини англаш;
- Тил вазияти ва сиёсати модулининг методологик принциплари

тамойиллари ва ёндашувларини фарқлаш;

- “Ўрганилаётган мамлакатда тил вазияти ва сиёсати (Ҳиндистон)” модулининг терминологик аппарати, қонуниятлари ва асосий тушунчаларини амалий жиҳатдан қўллаш;

- “Ўрганилаётган мамлакатда тил вазияти ва сиёсати (Ҳиндистон)” модули бўйича назарий мавзуларни ва эгалланган ахборотни амалиётда қўллаш малакаларини эгаллаши зарур;

Тингловчи:

- ўрганилаётган мамлакатдаги тил вазияти бўйича маълумотларни тўплаш, таҳлил қилиш ва тизимлаштириш;

- мавзуларни таҳлил методларини (лингвистик шарҳлаш, сўз ва матн таҳлилининг статистик методлари) билиш ва уларни ўқув жараёнида қўллаш;

- модул бўйича эгалланган билим, кўникма ва малакаларни баҳолаш, хулосалар бериш, умумлаштириш ҳамда тадқиқотлар олиб бориш;

- модул бўйича орттирилган малакаларни ўз илмий тадқиқот амалиётида қўллаш *компетенцияларига* эга бўлиши лозим.

Модулни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича тавсиялар

“Ўрганилаётган мамлакатда тил вазияти ва сиёсати (Ҳиндистон)” модули маъруза ва амалий машғулотлар шаклида олиб борилади.

Курсни ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий методлари, педагогик технологиялар ва ахборот-коммуникация технологиялари қўлланилиши назарда тутилган:

- маъруза дарсларида замонавий компьютер технологиялари ёрдамида презентацион ва электрон-дидактик технологиялардан;

- ўтказиладиган амалий машғулотларда техник воситалардан, экспресс-сўровлар, тест сўровлари, “Блиц ўйини”, “Венн диаграммаси”, “Ақлий ҳужум”, “Кейс-стади” ва бошқа интерактив таълим усулларини қўллаш назарда тутилади.

Модулнинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан боғлиқлиги ва узвийлиги

“Ўрганилаётган мамлакатда тил вазияти ва сиёсати (Ҳиндистон)” модули мазмуни ўқув режадаги мутахассислик ўқув модулларининг барча соҳалари билан узвий боғланган ҳолда профессор-ўқитувчиларнинг умумий касбий тайёргарлик даражасини оширишга хизмат қилади.

Модулнинг олий таълимдаги ўрни

Мазкур фанни илмий ва амалий жиҳатдан етарли манбалар асосида

Ўрганган тингловчилар мавзуни бошқа гуманитар фанлар билан узвийлигини таҳлил қила олади, гуманитар фанлар тизимидаги муассасаларда ички ва ташқи алоқа органларида мутахассис сифатида касбий компетентликка эга бўлиб, ўз вазифаларни бажара оладилар.

**“Ўрганилаётган мамлакатда тил вазияти ва сиёсати (Ҳиндистон)”
модули бўйича соатлар тақсимоти**

№	Модул мавзулари	Тингловчининг ўқув юкламаси, соат		
		Жами	Назарий	Амалий машғулот
1.	1-мавзу. Тилшунослик, социолингвистика, тил вазияти.	2	2	
2.	2-мавзу. Ҳиндистонда тил манзараси	2		2
3.	3-мавзу. Тил вазияти ва унинг аспектилари	2		2
4.	4-мавзу. Регионал тил вазияти (Ражастхон штати мисолида)	2		2
	Жами:	8	2	6

НАЗАРИЙ МАШҒУЛОТЛАР МАЗМУНИ

1-мавзу. Тилшунослик, социолингвистика, тил вазияти.

Тилдаги турли хил ўзгаришлар жараёнларидаги омиллар хусусида атрофлича маълумот бериш. Унинг бошқа социолингвистик тушунчаларидаги ўрни ва аҳамияти. Тил вазиятини ўрганишнинг синхрон ва диахрон аспектилари. Тил вазияти ва тил сиёсати, уларнинг ўзаро боғлиқлиги ва таъсири. Тил вазияти турлари. Кўп тилли мамлакатларда тил вазиятининг ўзига хосликлари.

Таянч тушунчалар: Тил ва тилшунослик, тил ва жамият, тил шакллари, икки тиллик, кўптиллик, микролингвистика, макролингвистика, адабий тил, стандарт тил, тил ва тафаккур, социологик тил типологияси

Қўлланиладиган таълим технологиялари: *диалогик ёндашув, муаммоли таълим, мунозара, ўз-ўзини назорат.*

АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ МАЗМУНИ

1-амалий машғулот: Ҳиндистонда тил манзараси.

Жанубий Осиё минтақасидаги Ҳиндистон мисолида тил вазиятининг омиллари. Уларнинг ўзаро боғлиқлиги ва тил вазиятини ўрганишдаги аҳамияти. Ҳинд тилшунослиги билан боғлиқлиги ва бошқа хиндшунослик фанларига алоқадорлиги. Ҳиндистонда тил вазиятини ривожланиш даврлари.

Таянч тушунчалар: Ҳинд-орий тиллари, Дравид тиллари, Австрия-Осиё, Тибет-Бирма, тил худуди (линвоареал), билингвизм, этнолингвистик вазият, норасмий тил, амалдаги тил, диглоссия.

Қўлланиладиган таълим технологиялари: *муаммоли таълим, кластер, диаграмма, мунозара, ўз-ўзини назорат.*

2-амалий машғулот: Тил вазияти ва унинг аспекти.

Тил вазиятининг аспекти ва уларнинг бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги. Тил вазияти ва тил сиёсати. Кўп тилли мамлакатларда тил вазиятининг хусусияти ва ўрганиш аҳамияти.

Таянч тушунчалар: тил вазияти, функционал-лингвистик факторлар, регионал тил, расмий тил.

Қўлланиладиган таълим технологиялари: *диалогик ёндашув, муаммоли таълим, БББИ, мунозара, ўз-ўзини назорат.*

3-амалий машғулот: Регионал тил вазияти (Ражастхон штати мисолида).

Ҳиндистондаги ҳар бир тил худудининг тил вазияти мураккаблигини Ражастхон штатининг тил вазияти мисолида тасвирлаш, ражастханий тилининг келиб чиқиши хусусида атрофлича маълумот бериш.

Таянч тушунчалар: ражастханий тили атамаси, шевалар, ҳинд-орий тиллари, расмий тиллар, ҳиндий тили худуди.

Қўлланиладиган таълим технологиялари: *диалогик ёндашув, муаммоли таълим, мунозара, ўз-ўзини назорат.*

ЎҚИТИШ ШАКЛЛАРИ

Мазкур модул бўйича қуйидаги ўқитиш шаклларидан фойдаланилади:

- маърузалар, амалий машғулотлар (маълумотларни англаб олиш, ақлий қизиқишни ривожлантириш, назарий билимларни мустаҳкамлаш);

- давра суҳбатлари (қўрилаётган саволларга ечимлари бўйича таклиф бериш қобилиятини ошириш, эшитиш, идрок қилиш ва мантиқий хулосалар чиқариш);

- баҳс ва мунозаралар (асосли аргументларни тақдим қилиш, эшитиш ва муаммолар ечимини топиш қобилиятини ривожлантириш).

II. НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТ МАТЕРИАЛЛАРИ

1-mavzu: Tilshunoslik, sotsiolingvistika, til vaziyati

Darsning maqsadi: Filologiya fanining asosiy atamalari va sohalari, ularning boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Tayanch iboralar: Til va tilshunoslik, til va jamiyat, til shakllari, mikrolingvistika, makrolingvistika, ikkitillik, ko'p tillik, adabiy til, standart til, normallashtirilgan til, til va tafakkur, sotsiologik til tipologiyasi

Asosiy savollar:

1. Atamalarning ma'nosi;
2. Tilshunoslik fanining sohalari;
3. Til va jamiyat;
4. Jamiyatdagi tilning o'rni

Asosiy o'quv materialini qisqacha bayoni:

Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi - tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadigan fandır.

Tilni tilshunoslikdan tashqari falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Ma'lumki, tafakkurga daxldor masalalar mantiq ilmining mavzusidir. Shu tufayli mantiqchilar tafakkur qonuniyatlari bilan birga, fikrning tilda aks etishini o'rganmasliklari mumkin emas. Undan tashqari, til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri-ikkinchisiz yashay olmaydigan hodisadir. Tafakkur tilda yashaydi, har qanday nutq asosida esa tafakkur yotadi. Mantiq tilni ana shu yo'nalishda o'rganadi.

Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi tufayli til sotsiologlar tomonidan ham o'rganiladi. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida sodir bo'lgan voqea va hodisalar tilda aks etmay qolmaydi. Shunga ko'ra, tarixchilar til tarixiga, tilshunoslar esa o'z navbatida tarix faniga murojaat qilmay ilojlari yo'q. Demak, tilshunoslar tilga oid masalalarni hal qilishda etnografiya, psixologiya, antropologiya, matematika, geografiya, fizika va boshqa fanlarga oid

materiallar va xulosalardan foydalanadilar.

Shunday qilib, til faqat tilshunoslik emas, balki boshqa fanlar uchun ham o'rganish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu sohadan har bir fan o'z mavzusini ajratib oladi. O'rganilish sohasini ajratib olish nuqtai nazaridan tilshunoslik ikki turga: *mikrolingvistika* (kichik tilshunoslik) va *makrolingvistika* (katta tilshunoslik)ga ajratiladi.

Mikrolingvistika - tilning faqat ichki, ya'ni fonetik, leksik va grammatik tuzilishini, *makrolingvistika* esa, tilni boshqa fanlar bilan qo'shib o'rganadi.

Makrolingvistika - tilning paydo bo'lishi va uning taraqqiyot qonunlari, tilning ijtimoiy mohiyatini: uning tafakkur bilan munosabatini, til va boshqa signal sistemalari orasidagi o'xshashlik va farqlarni, tilning tarqalishi - dialekt (shaxsiy sheva), yangi til masalalari kabi muammolarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda til nima degan savolga olimlar turlicha javob beradilar. Xususan:

- «*Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir*» (F.de Sossyur).

- «*Til - odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lgan mexanik harakatidir*».

- «*Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir*» (B. Grosse), degan fikrlar mavjud.

Bu fikrlarning birortasi, ular garchi bir-birini to'ldirsa ham, tilning to'liq ta'rifi emas, chunki ular tilning ijtimoiy mohiyatini ochib berolmaydi.

Olimlar tilning kishilik jamiyatida tutgan o'rni naqadar muhim ekanini ko'rsatib, «*til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir*», deb ta'riflaydilar. Til yakkayu yagona aloqa vositasi emas. Aloqa boshqa vositalar orqali ham o'rnatilishi mumkin. Masalan, Morze alfaviti, imo-ishoralar, Afrikada uzoq masofaga axborot berish uchun qo'llaniladigan nog'ora tovushlari, Kanar orollarida ishlatiladigan «Hushtak-tili» shular jumlasidandir. Lekin, bular tilga nisbatan yordamchi, ikkinchi darajali vositalardir. Til va boshqa aloqa vositalari orasida o'xshashlik va farqlar mavjud. Bu vositalarni bir-biri bilan birlashtiradigan xususiyatlar quyidagilar:

-fikr va hissiyotlarni ifodalaydi;

-ijtimoiy, chunki jamiyat tomonidan yaratilib, unga xizmat qiladi;

-moddiy (tovush to'lqinlari, grafik chizmalar va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi);

-obyektiv borliqni aks ettiradi.

Ular orasidagi farq esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Til fikr va hissiyotlarni ifoda qiluvchi vosita. Inson uni barcha faoliyatida

qo'llaydi. Boshqa aloqa vositalarining ishlatilish ko'lami cheklangan, masalan, ko'cha harakati belgilari asosan haydovchilarga xizmat qiladi, boshqa yerda ishlatilmaydi.

2. Til quruq axborotning o'zinigina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yetkazmasdan, balki gapiruvchining bu axborotga munosabatini, uning xohish-istagi va bahosi, ruhiy holotini aks ettiradi.

Tildan boshqa barcha signal sistemalari sun'iydir. Ular odamlar tomonidan yaratiladi va sharoitga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Sun'iy vositalarning yaratilishida odamlarning hammasi emas, balki mazkur sohani yaxshi biluvchi kichik bir guruh ishtirok etadi. Til esa odamlarning istak-xohishlariga bog'liq bo'lmaydi, uni jamiyat a'zolari o'z ixtiyorlari bilan o'zgartira olmaydi. Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi, ularning ehtiyojlarini to'la-to'kis bajaradi, garchand til o'zgaruvchan hodisa bo'lsa-da, u faqat o'zining ichki obyektiv qonunlari asosida rivojlanadi. Shu bilan birga shuni ham qayd qilish kerakki, jamiyat bo'lmasa, til bo'lmaydi; jamiyat tilni kundalik hayotida qo'llamasa, u (til) rivojlanmaydi. Demak, til va jamiyat doimo bir-birini taqozo etadi. Boshqa signal tizimlari tilga nisbatan ikkilamchi, unga qo'shimcha vosita sifatida namoyon bo'ladi, tilni to'ldiradi.

Shunday qilib, til o'ziga xos semiologik sistema (ya'ni, ishoralar sistemasi) bo'lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan-avlodga madaniy-tarixiy meros va an'analarni yetkazuvchi vosita xizmatini o'taydi.

Tilning paydo bo'lishi va uning taraqqiyot yo'lini o'rganish tilning qanday hodisa ekanligini tasavur qilish imkonini beradi.

Tilshunoslik tarixida qadimdan qarama-qarshi ikki fikr o'rtasida kurash boradi. Quyida shular to'g'risida fikr yuritimiz.

Shulardan biri XIX asrda Germaniyada Avgust Shleyxer tomonidan asos solingan tilning tabiiy hodisa ekanligi haqidagi fikrdir. Shleyxer u yoki bu hodisaning tabiiy yoki ijtimoiylikmi xalqning irodasi shu hodisaga ta'sir ko'rsata olish-olmasligi nuqtai nazaridan aniqlaydi. Uning fikricha, tilning rivojlanishi xalq istagiga bog'liq bo'lmaydi, u o'z qonunlari asosida rivojlanadi, demak, til tabiiy hodisalar qatoridan o'rin olishi kerak. Bundan til dunyodagi boshqa tabiiy hodisalar singari o'z-o'zicha paydo bo'ladi, rivojlanadi, kezi kelganda, yo'q bo'ladi, o'ladi degan ma'no kelib chiqadi. Til kishining tabiiy xususiyatlari (masalan, yurish, nafas olish, ovqatlanish va boshqalar)ga xos narsadir. Olma daraxti ma'lum vaqt o'tishi bilan olma hosili bergarudek, odam bolasi ma'lum yoshga yetganda gapira boshlashi kerak. Bunday fikrni ilgari surgan olimlarda ba'zi «dalillar» ham bor edi. Ular lotin, sankrit (qadimgi hind tili) kabi o'lik tillarni misol qilib ko'rsatishadi.

Mazkur fikr tarafdorlari o'z nazariyalarini asoslashda nemis faylasuf olimi Gegelning absolyut g'oyasidan foydalanadilar. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishini ana shu absolyut g'oyaning harakati deb bilishdi.

Aslida tilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti insoniyat jamiyati bilan uzviy bog'langan. Til jamiyat mahsuli, jamiyat bor joyda til paydo bo'ladi.

Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi qancha umr ko'rmasin, u gapirmaydi. Chunki til nasldan-naslga, avlodan-avlodga o'tmaydi, ya'ni uning irsiyatga hech qanday aloqasi yo'q. Irsiyat qonuniga binoan, bolaning biologik, antropologik xususiyatlari (tanasining va sochining rangi, yuz tuzilishi va boshqalar) avlodan-avlodga o'tadi, Iekin o'zbek oilasida tug'ilgan bola faqat o'zbek tilida gapiradi, deyish noto'g'ridir. U qaysi tilda gapira boshlashi, qaysi oila, qaysi ijtimoiy muhitda tarbiyalanishiga bog'liq: agar chaqaloq rus tilida gaplashuvchi jamoa ichida tarbiyalansa, ruscha, tojiklar ichida tarbiyalansa, tojikcha gapiradi.

XX asr boshlarida Hindistonda ro'y bergan voqea bu mavzuga yaxshi dalil bo'la oladi. U yerda bo'rilar to'dasi orasida ikki qizchaga duch kelingan. Qizchalardan biri - 2, boshqasi - 7-8 yashar bo'lgan. Ular bo'rilarga xos xatti-harakatlar qilishgan, Iekin gapirishni bilishmagan. Hindistonlik psixolog olim bu ikki go'dakni dastlab uyda, keyinchalik kattasini (kichigi ko'p vaqt o'tmay, kasallanib vafot etgan) bolalar uyida tarbiyalagan. Bu qiz yana 10 yil atrofida umr ko'rdi, ammo til va yurish-turishda aytarh'k muvaffaqiyatga erisha olmadi. Bu yillar mobaynida u 45 ga yaqin so'zni o'rgandi, Iekin ulardan gap tuza olmadi. Bu voqeani chuqur tahlil qilgan psixologlar, sotsiologlar, tilshunoslar shunday xulosaga kelishgan:

1. Til tabiiy hodisa emas.
2. Tilning paydo bo'lishi uchun kishilik jamiyati bo'lishi shart.
3. Til - nutq muhiti bolaning chaqaloqligida yaratilishi va chaqaloqqa bir tomonlama til ta'siri o'tkazish muhim, u hal qiluvchi ahamiyatga ega.
4. Til va tafakkur bir vaqtda paydo bo'ladi, birga rivojlanadi, biri ikkinchisiz yashay olmaydi.

Shunday qilib, til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog'liq. Til jamiyat bilan paydo bo'lganidek, jamiyat bilan birga o'ladi. Yuqorida lotin, Sanskrit tillari esga olimb o'lik tillar deb aytilgandi, chunki bu tillarda gaplashadigan, uni o'z ona tili deb hisoblaydigan xalq yo'q, hozirgi kunda bu tillarning lug'at tarkibi, tovushlar majmui, grammatikasi bor, ular to'g'risida fikr yuritish, boshqa tillar bilan qiyoslash mumkin. Ammo bu tillarda rivojlanish yo'q, qadimdan qanday bo'lsa, hozir ham

shunday va shundayligicha qolaverdi.

SOTSIOLINGVISTIKA (Ijtimoiy tilshunoslik) Zamonaviy tilshunoslikda bu atama ikki ma'noda ishlatiladi:

1. *Til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat, ya'ni jamiyat hayoti va rivojlanishida tilning roll va aksincha, tilning rivojlanishida jamiyatning ahamiyati.*

2. *Tilda millatning ijtimoiy guruhlanishi munosabati bilan bo'ladigan farqlar.*

Bu masalalar tilshunoslik tarixida bir qadar o'z aksini topgan. Lekin oldingi asrning oltmishinchi va yetmishinchi yillariga kelib tilshunoslik fanining bu yo'nalishi jadal rivojlana boshladi. Sotsiolingvistika faqat tilshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari orasidagi munosabatlarni emas, balki falsafani, ijtimoiy psixologiya va etnografiyaga oid masalalarni ham qamrab oladi.

Tilshunoslik fanidagi bu yo'nalishga qiziqishning oshishi quyidagi omillar bilan tushuntirilishi mumkin:

1) *jamiyatning ilmiy asoslangan til siyosati tamoyillariga bo'lgan ehtiyoj;*

2) *struktural tilshunoslikning faqat tilning ichki tuzilishini o'rganishga ho'lgan qiziqishi.*

Bugungi kunda jamiyatda til siyosati masalasi borgan sari keskinlashmoqda. Mustamlaka bo'lgan ko'plab Osiyo va Afrika mamlakatlarida til muammosi shu vaqtgacha hal etilmagan.

Birorta milliy tilni davlat tiliga aylantirishda qator muammolar hal etilishi lozim.

Birinchidan, bu til o'z mavqei bilan shu davlatda yashovchi boshqa millatlarga manzur bo'lishi kerak. Buning ma'nosi shuki, mazkur til boshqa tillarga nisbatan ko'proq hududga tarqalgan bo'lishi, bu tilda ko'pchilik gapj,rishi, leksik jihatdan boshqalariga nisbatan namuna bo'lish kerak.

Ikkinchidan, bu tilni targ'ib qilishni to'g'ri uyushtirish, o'qish-o'qitish ishlarini yo'lga qo'yish, bu maqsadda ommaviy axborot vositalaridan kengroq foydalanish lozim.

Uchinchidan, umummilliy tilga o'tish bu bir necha yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda fan va texnika yangiliklarini yangi umummillat till orqali yetkazish mushkul, bu vazifani faqat g'arbiy tillar bajaradi, degan fikr endigina mustaqillikka erishgan mamlakatlarda chuqur o'mashib qolgan, shu sababli g'arbiy tillardan qutulish qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

Bulardan tashqari sotsiolingvistikaning tez rivojlanib ketishiga strukturalizm oqimining salbiy tomonlari ham ta'sir etdi.

XX asrning o'ttizinchi yillarida maydonga kelgan strukturalizm tilni asosan bir tomonlama o'rganishni, tilning tuzilishi va uni tashkil etuvchi birliklar orasidagi

munosabatlarni o'rganishni tilga oid boshqa masalalardan ustun qilib qo'ydi. Natijada til birliklariga xos bo'lgan shakl va ma'no birligini rad etib, faqat shaklni o'rganishga zo'r berildi. Ko'p o'tmay bu oqim inqirozga uchrab, qo'yilgan maqsadlarni uzil-kesil hal qila olmadi. Tilning yashashi va rivojlanishi bu tilda gaplashuvchi jamiyat bilan uzviy bog'liq ekani ravshan bo'lib qoldi.

Shular va shunga o'xshash yana bir qancha boshqa masalalar tilshunoslik fanining asosiy masalalaridan bo'lmish til va jamiyat masalasini yana kun tartibiga qo'ydi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlar asosida yotgan sabablar hamma yerda bir xil emas.

Adabiy tillariing yaratilishi bilan bog'liq masalalar. Sotsio-lingvistika fani qo'yilgan masalani muvaffaqiyatli bajarishi uchun quyidagilarni hal qilishi lozim:

- *adabiy tilga asos bo'la oladigan shevani topish;*

- *bo'lajak adabiy tilning tovush tarkibi xususiyatlarini hisobga olib, milliy yozuvni yaratish.*

Bu masalalarni hal etishda boshqa muammolar ham yuzaga keldi. Masalan, adabiy til darajasiga ko'tarilishi lozim bo'lgan sheva boshqa shevalardan o'z mavqei bilan ajralib turishi, ko'pchilikka manzur bo'lishi kerak. Bu anchagina murakkab masaladir. Sotsiolingvistika yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, milliy adabiy tilni barpo etishda ko'pchilik gapiradigan sheva emas, balki ijtimoiy mohiyati kuchliroq, **fan** va madaniyat markazida ishlatilayotgan shevagina adabiy tilga asos qilib olinishi mumkin, degan xulosaga keldi.

Ma'lumki, adabiy til o'z normalari va qoidalariga ega bo'ladi. Adabiy tilning qoida va normalari barcha shevalar vakillari uchun majburiy bo'lib, aloqa va fikrlashuvni osonlashtirishga, qulaylashtirishga xizmat qiladi. Adabiy til atamashunoslik bilan uzviy bog'langan. Atama fan va texnika, madaniyat va san'at sohasidagi bir aniq tushunchani ifodalaydigan so'zdir. Masalan: *fon, fonema, fonologiya, paradigma* kabi atamalar tilshunoslikka xosdir. *Atamashunoslik* - atamalarni o'rganadigan fan tarmog'idir. Atamashunoslikda ikki yo'nalishga duch kelinadi:

1) *baynalminal so'zlarni o'zlashtirish;*

2) *baynalminal so'zlardan butkul voz kechish va faqat milliy til zaminida atamalar yaratish.*

Bu yo'nalishning ikkalasi ham o'rinli emas. Ko'pchilik tillar tomonidan qabul qilingan baynalminal atamalar o'rniga milliy adabiy tildan uning o'rnini bosuvchi so'zni axtarish yoki uni sun'iy yaratish maqsadga muvofiq emas. Bu o'ta purizm (tilni o'zlashtirilgan so'zlardan tozalash) bo'lib, adabiy tilning mavqeini pasaytirishga olib keladi. Atamalarning ko'pchilik tillarda umumiy bo'lishi, fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lish va ulardan foydalanishni osonlashtiradi, ortiqcha so'zlarni yodlashdan ozod qiladi.

Shu bilan birga milliy adabiy tilda bor bo'lgan atama o'rniga boshqa tildan so'z o'zlashtirish ham maqsadga muvofiq emas. Odatda mazkur tilda gaplashuvchi xalq bunday sun'iylikni qabul qilmaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili atamalar lug'ati, birinchidan, o'zbek tilida bor bo'lgan so'zlar va vositalarni hisobga olish va, ikkinchidan, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish evaziga boyib bormoqda.

Boshqa tillardan o'zlashtirilgan atamalarning tovush strukturasi deyarli o'zgartirilmay ishlatiladigan atamalar bo'lib, ularga demokratiya, federatsiya, partiya, ensiklopediya, standart, internet kabilar kiradi.

Sotsiologik tilshunoslik millatlararo aloqa vositasi muammosi bilan ham shug'ullanadi. Zamonaviy tilshunoslikda millatlararo aloqa vositasi bo'lib xizmat qiluvchi tillarni *lingva - franka* atamasi bilan belgilashgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida bu vazifani rus tili bajarmoqda, xalqaro miqyosda esa ingliz tili.

Adabiy tillarning shakllanishini o'rganish natijasida tilshunoslar til jarayoniga maqsadga muvofiq ta'sir o'tkazish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin hamda bu tilning rivojlanishini tartibga solish va rejalashtirish imkonini tug'diradi, degan xulosaga keldilar.

AQShlik R.T. Bell fikricha, ijtimoiy tilshunoslikka ikki xil yondashuv bo'lishi mumkin. Birinchisi «*so/sotsiolingvistika*» bo'lib, unda gapiruvchi va tinglovchilar grammatikasining o'zaro bir-biriga ta'siri, hamkorligi o'rganiladi. Ikkinchisi «*til sotsiologiyasi*» bo'lib, til tuzilishi bilan ijtimoiy tuzilishlarning ishoralar nazariyasi ichidagi integratsiyasidir. Bu yo'nalish tilshunoslikni boshqa ijtimoiy fanlar bilan qo'shib, til ishoralarining turli ijtimoiy hayot mazmunida ishlatilishi masalalarini o'rganadi. Ba'zi olimlarning fikricha, ijtimoiy tilshunoslik o'rganadigan masalalarni ikkiga ajratish maqsadga muvofiq emas. Chunki AQShda birinchi yo'nalish mikrosotsiologiya deb nomlanib, uni asosan tilshunoslar, ikkinchisi esa makrosotsiologiya deb atalib, uni sotsiologlar o'rganadi. Natijada yagona masala bilan turli fanlar shug'ullanadi. Mikro-siolingvistikaning diqqat markazida kichik ijtimoiy guruhlarai tashkil etuvchi shaxs va guruhning a'zolari o'rtasidagi nutqiy hamkorlik munosabati yotadi. Makrosotsio-lingvistikaning diqqat markazida esa bir sotsial guruh bilan ikkinchi bir sotsial guruh o'rtasidagi nutqiy muloqot yotadi. Mikro va makrosotsiolingvistikani bir-biridan ajratib bo'lmasligining asosiy sababi ham, har qanday ijtimoiy guruh ayrim shaxslardan tashkil topgan bo'lishidadir. Har bir shaxs mazkur guruh uchun umumiy bo'lgan tildan foydalanadi va shu bilan birga o'ziga xos nutqiy xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Bu xususiyatlar bir tomondan, shaxsning o'ziga xos psixologiyasiga, ikkinchi tomondan bu shaxs a'zo bo'lgan kichik sotsial guruhning kasb-hunariga ham bog'liq. Demak, bu guruhning o'ziga xos atama va jargonlari bo'lishi mumkin. Lekin bundan na ayrim shaxs va na ayrim sotsial guruh o'z tiliga ega ekan, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bu shaxslar

mazkur milliy hududning qayerida yashamasin, u mazkur milliy tilga aloqador bo'lsa, shu milliy til normasidan chiqib ketmaydi, balki milliy tilning bir ko'rinishida, variantida gapiradi. Shunday ekan, mikrosotsiolingvistika erishgan yutuqlar makrosotsiolingvistika tadqiqotlari uchun yaxshi ilmiy zamin bo'lishi mumkin.

Mikrosotsiolingvistik tadqiqotlar esa makrosotsiolingvistikaning ilmiy asoslariga tayanmay to'g'ri xulosalar chiqara olmaydi, chunki kichik ijtimoiy guruhlarning tuzilishi jamiyatning sinfiy tuzilishidan kelib chiqadi.

Chet el tilshunosligida ham bizdagi tilshunoslikda bo'lganidek, tilning ijtimoiy muhitiga ko'ra o'zgarish xususiyatlari atroflicha o'rganiladi. Bu - tilshunoslikda tilning o'zgarish nazariyasi deb yuritiladi. Tildagi o'zgarishlar, aytib o'tilganidek, tilning ichki jarayonlari va tashqi ta'sirlar asosida sodir bo'ladi. Tilning ichki o'zgarish jarayoniga tilshunoslik fanida «*kompensatsiya qonuni*» norm bilan yuritiladigan hodisani misol tariqasida keltirish mumkin. Bu qonuniyatga ko'ra, tilning biror qismida birorta o'zgarish ro'y bersa, bu o'zgarish tilning boshqa qismida ham o'z aksini topadi. Ingliz va fransuz tillarining tarixi bu jihatdan yaxshi misol bo'lishi mumkin. Qadimgi ingliz va fransuz tillari grammatik qo'shimchalarga boy, kelishik tizimiga ega bo'lgan tillar bo'lgan. Lekin vaqt o'tishi bilan bu tillar asta-sekin o'z grammatik qo'shimchalarini yo'qota borgan. Shu jumladan kelishik sistemasi ham yemirilib, fransuz tilida u umuman yo'q bo'lib ketgan, ingliz tilida esa bitta kelishik qo'shimchasi saqlanib qolgan. Bu hodisa ikkala tilning grammatik tuzilishida burilish yasadi, ya'ni grammatik qo'shimchalar bajaradigan vazifaning asosiy og'irligi so'z tartibiga o'tdi: ikkala tilda ham gapdagi so'zlarning sintaktik aloqasini so'zlarning tartibi belgilaydigan bo'ldi; gap, gapni tashkil etuvchi so'zlarni ma'lum tartibda joylashtirilishini talab qiladigan, ya'ni qat'iy so'z tartibi paydo bo'ldi. Bu tillar uchun to'rt sintaktik vosita (grammatik qo'shimchalar, yordamchi so'zlar, so'z tartibi, ohang)lardan so'z tartibi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ldi. Demak, bir grammatik vosita mavqeining kamayishi, ikkinchi grammatik vosita ahamiyatining oshishiga olib keldi. Tillar ana shunga o'xshash yo'llar bilan o'zlarining ichki muvozanatlarini saqlab turadi.

Zamonaviy ingliz tilida [1] fonemaning yumshoq va qattiq turi uchraydi. Birinchi turi so'zning boshida va o'rtasida, unlilar oldida, ikkinchisi esa so'zning oxirida va so'zning o'rtasida undosh tovushlardan oldin ishlatiladi. Tildagi bunday o'zgarishlar ichki o'zgarishlar bo'lib, tashqi omillarning bunga aloqasi yo'q.

Til o'zgarishining tashqi omillari deganda ko'proq tilning ishlatilishidagi ijtimoiy shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Ma'lumki, tilning lug'ati mazkur tilda so'zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy, tushunarli bo'lgan umummillat toifasidagi so'zlardan tashqari, millatning ijtimoiy guruhlanishi bilan bog'langan bo'lishi ham tabiiy. Millatning ijtimoiy guruhlariga genetik jihatdan ayrim qabila

va aholining hudud belgisiga ko'ra ajralgan ayrim guruhlar bilan birga jamiyatdagi sinfiy tabaqalanishga, kasb-hunarga ko'ra ajralgan aholi guruhlar ham kiradi. Sotsial tabaqalar nutqidagi o'ziga xosliklar, guruhlardagi o'zaro muloqot xususiyatlari, turli guruhlar orasidagi aloqa vaqtida qanday so'zlar va grammatik konstruksiyalarning tanlanishi tilning ishlatilish turlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga bunday o'zgarishlar gapiruvchilarning yoshiga, jinsiga, ma'lumotiga, nutq sodir bo'layotgan muhitga ham bevosita aloqadordir.

Ichki qonuniyatlar asosida bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan hisobga olish mumkin, bu o'zgarishlar gapiruvchining xohish-istagiga bog'liq emas. Ular obyektiv o'zgarishlardir. Tashqi omillar asosida paydo bo'ladigan o'zgarishlar subyektiv xususiyatga ega. Bunday o'zgarishlarning hammasini oldindan aytib berish imkoniga doimo ega bo'linmaydi. Tashqi ta'sir manbalarini sotsial guruhlarining xususiyatlari (buni shaxslararo o'zgarishlar deb ham yuritishadi), shaxslar ichidagi o'zgarishlar va ingerent o'zgarishlar tarzida uchga ajratish mumkin.

Birinchi manba qaysi ijtimoiy guruhni tashkil etishiga ko'ra tilshunos bu guruhni tilning qaysi variantini o'z nutqida qo'llashini aytib berishi mumkin.¹

Masalan, ipakchilik bilan shug'ullanadiganlar nutqida pilla, ipak qurti, pillakash, tut, tutchi kabi so'zlar uchraydi; suvoqchilarda boza, andava, loy, loylash, gazcho'p kabi so'zlar ko'plab uchraydi.²

Ikkinchi manbaga ayrim shaxslarning nutqiga bog'liq bo'lgan o'zgarishlar kiradi. Ayrim shaxslarning nutqlarida uchrashi mumkin

bo'lgan o'zgarishlarni oldindan bilish mumkin emas. Chunki bunday o'zgarishlar mazkur shaxsning kim bilan qanday sharoitda suhbatlashishi va bu nutqning rasmiy yoki norasmiyligi va boshqa shunga o'xshash sabablarga bog'liq bo'ladi.

Uchinchi manba ingerent o'zgarishlar aslida tilning ichki tuzilishi zaminida yotadi. Odatda, tildagi birorta tovush yoki boshqa til birliklari ikki yoki undan ortiq ko'rinishga ega bo'ladi. Bulardan qaysi biri gapiruvchi tomonidan ishlatilishini aniq bilish qiyin. Tilning tuzilishidagi ana shunday hodisalarning bo'lishi gapiruvchilarga til vositasidan foydalanayotganda erkin tanlash imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar asosida quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin:

1) *jamiyat taraqqiyoti tillarning ijtimoiy vazifalarining ortib borishiga olib keladi;*

2) *hamma adabiy tillarning lug'at tarkibi kengayib, boyib boradi;*

3) *ijtimoiy taraqqiyot sur'atining jadallashib borishi adabiy tillarda o'z aksini topib boradi;*

4) *qo 'shni xalqlar tillarining bir-biriga o 'zaro ta 'siri ortib boradi;*

5) millatlararo aloqa vositasi vazifasini o'tovchi tilning ijtimoiy roll oshib boradi va uning boshqa tillarga ta'siri kuchayadi;

6) ikki tillilik rivojlanib boradi.

Sotsiolog olimlar tillarning o'zaro munosabati yuzasidan olib borgan tadqiqotlari natijasida tillar bir-biriga leksik tomondan ta'sir ko'rsatibgina qolmay (ya'ni bir-biridan faqat so'z o'zlashtirmasdan), balki bir-birining ichki tuzilishiga ham ta'sir etadi, degan xulosaga keldilar.

Zamonaviy tilshunoslikda «tillar ichki tuzilishining o'zaro hamkorlik jarayoni» degan tushuncha mavjud. Bu tushuncha:

- nutq shakllarining o'zaro ta'siri (xalq og'zaki tili bilan adabiy til orasidagi munosabat, adabiy til bilan shevalar orasidagi munosabat va boshqalar);

- turli til qatlamlarining o'zaro munosabatlari, bir-biriga ta'siri (fonetik, morfologik, leksik, sintaktik, semantik, stilistik qatamlar orasidagi hamkorlik) masalalarini qamrab oladi.

Ma'lumki, tillarning ichki rivojlanishi ichki va tashqi qonuniyatga bo'ysunadi, ya'ni o'zaro hamkorlik jarayonida tillar taraqqiyoti ichki qonunlar ta'siriga emas, balki tashqi ta'sirlarga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi mazkur mamlakatlarda yashovchi xalq va elatlarning madaniyatining bir-biriga yaqinlashuviga shart-sharoitlar yaratib beradi. Tillar ham bir-biriga ta'sir ko'rsatib boyib boradi; bunday hamkorlik tillarning ichki rivojlanishiga ham sabab bo'ladi.

Ijtimoiy tilshunoslik an'anaviy tilshunoslik yaratgan tipolo-giyalardan farqlanuvchi til tipologiyasini yaratishga ham intilmoqda. Bunday tipologiya tilning ichki tuzilishini nazarda tutmay, balki uning tashqi ijtimoiy (sotsial) vazifasini aks ettiruvchi sotsiolingvistik tipologiyadir.

Bunday tipologiyaga qator tamoyillar ichida standartlashtirish, hayotiylik, tarixiylik va avtonomlik deb nomlanuvchi o'lchovlar ham qabul qilingan.

Standartlashtirish deganda mazkur tilda gaplashuvchilar tomonidan qabul qilingan adabiy til tushuniladi. Standartlashtirishning muhim omillaridan biri tilning grammatikasini va lug'atini tuzishdir. Demak, standartlashtirilgan til deganda jamiyat tomonidan kundalik hayotda o'zaro fikr almashish quroli sifatida foydalaniladigan milliy adabiy til nazarda tutiladi.

Hayotiylik deganda mazkur tilda gapiruvchi jamiyatning bor-yo'qligi tushuniladi. Til hayotiy bo'lsa, bu tilni ona tilim deb biladigan jamiyat hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ba'zan o'lgan tillar qaytadan hayot kashf etishi mumkin. Bunday tillarga klassik ivrit tili misol bo'lishi mumkin. Ivrit milodgacha 1-ming yillikda Qadimgi Falastin aholisining tili bo'lgan. «Tavrot»ning birinchi qismi o'sha davrdagi ivritning asosiy yodgorligidir. 1948-yilda Isroil davlati ba'zi

o'zgartirishlar kiritib, uni davlat tili sifatida qabul qiladi.

Tarixiylik deganda mazkur tilning jamiyat tomonidan ishlatilishi natijasida uning mo'tadil rivojlanib turishi tushuniladi.

Avtonomlik deganda mazkur ijtimoiy guruh uchun ona tili sifatida xizmat qilayotgan til boshqa tillardan tuzilishi jihati bilan tubdan farq qilishi yoki bir tilning varianti sifatida namoyon bo'lishi tushuniladi. Agar o'zbek va qozoq tillari bir-biri bilan qiyoslansa, ular orasidagi fonetik, leksik va grammatik farqlar ko'zga yaqqol tashlanadi, ularning avtonomligiga hech qanday shubha yo'q. Lekin adabiy o'zbek tili bilan Xorazmda yoki Samarqandda gapiriladigan o'zbek tilining shevalari to'g'risida gapirilsa, unda ularni avtonom deyishga hech qanday asosimiz yo'q. Chunki sheva bilan milliy adabiy til o'rtasida tuzilish jihatidan o'zgarishlar bo'lmasligi aniq.

Yuqorida keltirilgan tipologik prinsiplar hisobga olinsa, quyidagi ijtimoiy tilshunoslik tipologiyasi paydo bo'ladi.

O'lchovlar				Tilning turlari	Misol
Standartlashgan	Hayotiylik	Tarixiylik	Avtonomlik		
+	+	+	+	Standart tillar	O'zbek adabiy tili
+	-	+	+	Klassik tillar	Lotin tili
+	+	+	-	Mahalliy tillar	Og'zaki arab tili
+	+	+	-	Kreol tillar	Krio tili
+	-	-	+	Pijin tillar	Neomelaneziy tili
+	+	-	-	Sun'iy tillar	Esperanto tili
				Sheva tillar	Kokni tili

Eslatma: + Xususiyatning borligini ko'rsatadi. - Xususiyatning yo'qligini ko'rsatadi. x Bo'lishi/bo'lmasligi mumkin.

Shunday qilib, tilning ijtimoiy lingvistik tipologiyasida *standart, klassik, mahalliy, kreol, pijin, sun'iy va marginal tillar* deb atalmish 7 til turi bo'lishi mumkin. Bu tillarning qisqacha xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Standart tillar deganda adabiy til normasiga ega bo'lgan tillar tushuniladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili bunga yaqqol misol bo'la oladi, chunki bu tilni o'z ona tili deb bilib, undan kundalik hayotda foydalanadigan xalq bor, u boshqa qardosh xalqlar tillari kabi teng huquqli; uning lug'ati o'z resurslari hamda qardosh tillardan o'zlashtirilgan so'zlar va baynalminal so'zlar asosida boyib boradi.

Klassik tillar deganda klassitsizm davrida mukammal, takomiliga yetgan, o'z yozuviga ega bo'lgan, o'z davrida buyuk asarlar yaratilgan tillar tushuniladi. Ular o'z davri uchungina emas, balki tillarning keyingi taraqqiyoti uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Klassik tillar faqat mazkur tilda gaplashuvchi xalqqa emas, balki keng xalq ommasiga mazmun va shakl jihatidan yaqin turadi. Bunday tillarning adabiy tillardan farqi shundaki, ular jonli til emas. Bu tillarda gaplashuvchi jamiyat yo'q, shuning uchun ular o'lik tillar deyiladi.

Mahalliy tillar deganda son jihatdan ko'p bo'lmagan kichik millatlarga xizmat qiluvchi, o'z yozuviga ega bo'lmagan tillar tushuniladi. Amerika qit'asidagi ko'pchilik mahalliy hindularning tili bunga misol bo'la oladi.

Kreol tillar «Evropa mustamlakachilarining afrikaliklar, Sharq mamlakatlari xalqlari va Amerika hindulari bilan fikr almashuvlari natijasida Ovrupo tillari (portugal, fransuz, ingliz) elementlaridan tashkil topgan tillardir. Masalan, Amerikadagi Gaiti oroli mahalliy aholisi tilining fransuz tili bilan aralashuvi natijasida gaiti-kreol tili, Lotin Amerikasidagi mahalliy aholi - nauatllar tili bilan ispan tilining aralashuvidan ispan-nauatl kreol tili hosil bo'lgan. Kreol tilining o'ziga xos xususiyatlari bor. Amerikadagi Kyurasao, Aruba, Bonayre orollarida negr va ispan tillari aralashuvidan tashkil topgan papiyamento tilining grammatikasi sodda: otlar turlanmaydi, fe'l faqat birxil shaklda qo'llanadi, gazeta va darsliklar chiqariladi. Kreol tilidagi badiiy ijodiyot, asosan folklor xarakterida». Shunday qilib, kreol tillar mahalliy tillardan ikki yoki undan ortiq tillarning bir-biriga qo'shib, aralashib ketishi bilan va manba tillarining grammatik strukturasi keskin qisqarishi bilan farq qiladi.

Pijin tillar deganda ham ovrupoliklar tili bilan mahalliy tillarning chatishuvidan paydo bo'lgan tillar tushuniladi. Lekin pijin tillar kreol tilidan farq qiladi. Kreol tilida so'zlashadigan, uni ona til debbiladigan jamiyat bor. Lekin pijin tillar bunday jamiyatga ega emas. Pijin tillaridan ikkinchi til sifatida katta port shaharlarda foydalaniladi. Ba'zi olimlarning fikricha, pijin tili, kreol tillari paydo bo'lishining boshlang'ich bosqichidir. Ma'lum davr o'tishi bilan bu tillar kreol tillarga aylanishi mumkin. Hozirgi kunda kengroq tarqalgan pijin tillardan biri «pijin-ingliz» tili deyish mumkin.

Sun'iy tillar maxsus yaratilgan xalqaro tillardir. Esperanto tili bunga misol bo'la oladi. Bu til 1887-yilda polyak L.Zamengof tomonidan yaratilgan bo'lib, keyingi yillarda muallifning o'zi va boshqa shaxslar tomonidan mukammallashtirilgan.

Uning grafikasi lotin alfavitida, so'zlarning asosiy ko'pchiligi Ovrupo tillaridan olingan, grammatikasi agglyutinatsiya prinsipiga asoslangan. Undagi grammatik qo'shimchalar so'zlarning grammatik shaklini o'zgartirish imkoniyatini beradi. Bir qo'shimcha bir grammatik ma'no anglatishi bilan esperanto turkiy va fin-ugor tillarini eslatadi. Hozirgi kunda u ancha keng tarqalgan sun'iy tillardan biridir. Bu tilda axborotlar chiqariladi, bir qancha mashhur klassik asarlar tarjima qilingan. Ba'zi mamlakatlarda bu tilda radio eshittirishlar ham tashkil etilgan.

Dialekt (yunoncha «*dialectos*» - sheva, lahja) - ma'lum bir qabila, xalq yoki millatning tarkibiy qismlari tilidir. Dialektlar umumxalq tilining quyi bosqichi sanalib, shevaga nisbatan kengroq ma'noga ega, tilning kichik bo'lagi hisoblangan shevalar yig'indisidan tarkib topadi. Masalan, yuz, qirq, saroy, nayman, mang'it, qoraqalpoq, ming, faloyir, burqut kabi shevalar birlashib, o'zbek tilining qipchoq dialektini tashkil etadi. Dialektlar orasidagi farqni fonetika, grammatika va lug'at tarkibida ko'rish mumkin.

Dialektlar grammatik qurilish va lug'at fondiga ega bo'lib, sotsial jargonlardan farq qiladi. Dialektlar millatning tashkil topish jarayonida milliy tilga asos bo'lishi va taraqqiy etib, milliy til darajasiga ko'tarilishi mumkin. O'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman tillari fonetik sistemasi, grammatik qurilishi va lug'at boyligi jihatdan bir-biriga yaqin. Bu qadim davrlarda shu xalqlarni tashkil etgan urug' va qabilalarning aralash yashagani, yaqin munosabatda bo'lganligi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, sotsiolingvistika hozirgi kunda katta odimlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu zamon taqozosidir. O'z mustaqilligiga erishgan davlatlarning o'z milliy adabiy tillarini yaratish, yozuvni asoslash, uni mukammallashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Fan va texnika taraqqiyoti xalqaro savdo-sotiqning kengayib borishi bir tomondan, tillarda baynalminal so'zlar sonining oshib borishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy tillar bilan xalqaro til vazifasini o'tayotgan tillar o'rtasidagi to'qnashuvlarga, til chatishuvlariga (kreollashtirish, pijinlashtirish) sabab bo'lmoqda. Bu masalalar bilan ijtimoiy tilshunoslik shug'ullanishi, bunday hodisalarning qonuniyatlarini ilmiy ravishda ochib berishi zarur.

Demak til, Sossyur aytganidek «o'zi uchun va o'z ichida» voqe bo'lmasdan, u bir tomondan o'z ichki qonuniyatlari asosida evolyutsion yo'l bilan rivojlansa, ikkinchi tomondan, tashqi tazyiqlar, ta'sirlar asosida ham rivojlanishi mumkin ekan. Jamiyatga til qanchalik zarur bo'lsa, tilga jamiyatning bo'lishi ham shunchalik zarurdir.

Tilning mavqei, rivojlanishi uning muomalada bo'lishiga bog'liq. Til o'zining muloqot, bilish, ifoda vazifalarini bajarishi uchun uning o'z hududi, bu hududda yashovchi jamiyati, jamiyatning iqtisodiy bazasi bo'lmog'i darkor, zero bu hudud,

sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ma'naviy va mafkuraviy siljishlar tilga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Til kishilar orasida asosiy muloqot vositasi bo'lishi bilan bir qatorda xalqning hayotiy tajribasini, an'anasi, milliy xarakterini va hatto bilim darajasini aks ettiruvchi ko'zgudir. Millatning bu xususiyatlari o'zgaruvchandir, shuning uchun ularni o'zida aks ettiruvchi til ham doimo o'zgarib, yangilanib boradi. Ana shular tilga tashqaridan o'tkaziladigan ta'sirdir. Shu ta'sirlar asosida tilda sodir bo'ladigan o'zgarishlar sotsiolingvistika mavzularidan bin hisoblanadi.

Har bir jamiyat a'zosi tilning sotsiolingvistik ishlatish qoidalarini o'zlashtirib olishi kerak. Gapiruvchining til malakasi har bir muayyan vaziyatda til vositalaridan mazkur shart-sharoitga to'g'ri keladiganlarini tanlay bilishiga qarab belgilanadi. Bunday qoidalarni gapiruvchilar ikki xil yo'l bilan hayot va nutq tajribasi va maxsus tayyorgarlik orqali (maktab, oliy ta'lim sistemasida) o'zlashtirishlari mumkin.

Bunday masalalar ham ijtimoiy tilshunoslik nazaridan chetda qolmaydi.

Zamonaviy sotsiolingvistika yuqorida aytilganlardan tashqari ayollar, erkaklar, o'smirlar, maktab va bog'cha yoshdagilarning nutqiga xos xususiyatlarni o'rganish bilan ham shug'ullanadi.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Tilshunoslik va sotsiolingvistika o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi;
2. Sotsiolingvistika va uning muhim aspektlari;
3. Sotsiolingvistika ichida til vaziyatining o'rni;
4. Tilning rivojlanishida ichki va tashqi omillar;
5. Til shakllari va ularning mohiyati;
6. Boshqa ijtimoiy fanlarda sotsiolingvistikaning o'rni.

2-mavzu: Hindistonda til manzarasi

Darsning maqsadi: Hindiston etnolingvistik xaritasi va uni lingvistik harita bilan qiyoslanishi

Tayanch iboralar: Til manzarasi, tillar oilasi, Hind-oriy, Dravid, Avstriya-Osiyo, Tibet-Birma, til hududi(lingvoareal),bilingvizm, rasmiy til, etnolingvistik vaziyat, norasmiy til, amaldagi til, diglossiya.

Asosiy savollar:

1. Etnolingvistik vaziyat va bilingvizm
2. Hind-oriy tillari va ularning hududi
3. Dravid tillari va ularning hududi

4. Avstriya-Osiyo tillari va ularning hududi
5. Tibet-birma tillari va ularning hududi

Асосий ўқув материали қисқача баёни:

Hindiston ko'p millatli davlat, aholisi turli tillarda so'zlashadi, lekin ularning madaniyati va rivojlanishi turli darajadadir.


Hindistonda 179 til va 544 ta dialekt mavjud. Hindiston aholisining asosiy (87.13%) i qismi Hindiston konstitutsiyasining 8 bandida tan olingan 18 tilda so'zlashadi:

- | | | |
|---------------|--------------|-----------|
| 1. Assamiy | 9. Marathiy | 17. Urdu |
| 2. Bengaliy | 10. Nepaliy | 18. Hindi |
| 3. Gujarotiy | 11. Oriya | |
| 4. Kannara | 12. panjobiy | |
| 5. Kashmiriy | 13. Sanskrit | |
| 6. Konkaniy | 14. Sindhiy | |
| 7. Malalyalam | 15. Tamil | |
| 8. Manipuriy | 16. Telugu | |

Har bir asosiy til o'z hududiga ega. Sindhiy tilining asosiy so'zlashuvchilari Pokistonda yashaydi. Urdu tilida so'zlashuvchilar esa Hindistonning ko'p shtatlarida yashaydi. Hind xalqi so'zlashadigan tillar asosan 4 til-oilasiga bo'linadi:

- 1) Hind-Oriy tillari
- 2) Dravid tillari
- 3) Avstraliya-Osiyo tillari
- 4) Tibet-Birma tillari

Zamonaviy hind tillari orasida so'zlashuvchilarining soni bo'yicha hind-oriy tillari birinchi o'rinda turadi. So'zlashuvchilari butun shimoliy va janubiy Hindistonning g'arbiy qismida yashaydi. 1961 yil ma'lumotlariga ko'ra Hindistonda 574 til va dialektlar hind- oriy tillariga tegishlidir. Bu Hindistonda yashovchilarning 321,7 mln, ya'ni butun aholining 73,3 % ini tashkil qiladi.



Aholining ko'pchiligi hindiy tili va shu formadagi tillarda so'zlashadi. Bu mamlakat aholisining 42%ini tashkil qiladi.

Hind tillarining muhim til oilalaridan biri dravid tillaridir. Bu til oilasiga 49 til va dialektlar kiradi va hammasi bo'lib 150 mln aholi bu tillarda so'zlashadi.

Dravid tillari oilasiga asosan 4 til mansub: tamil, telugu, malayalam, kannada. Bu tillarda so'zlashuvchilar dravid tilida so'zlashuvchilarning 95 %ini tashkil qiladi.

Hindiston aholisining anchagina qismini munda va mon-kxmer guruhiga kiruvchi tillarda gaplashuvchi aholi tashkil qiladi. Bu tillarda so'zlashuvchilar 6 mlndan ortiq.

Ko'p qismini munda guruhiga kiruvchilar tashkil etadi. Munda guruhiga kiruvchi tillar orasida santal tillari eng ko'p so'zlashuvchilarga egadir.

Mon-kxmer guruhidan kxasi tilida so'zlashuvchilar 360 mingdan ortiqdir.

Tibet-xitoy tillar oilasiga kiruvchi Tibet-Birma guruhiga kiruvchi

manipuri(meytxeli) tilida so‘lashuvchilar 370 mingdan ortiqdir.

Hindistonning hududi hind tillari tarqalish jihatidan ikki yirik til hududi(lingvoareal)ga bo‘linadi:

- 1) Shimoliy Hindiston hind-oriy tillarida so‘zlashuvchilar (bengali, maratxi, panjobi, hindiy va boshqalar)
- 2) Janubiy Hindiston dravid tillarida so‘zlashuvchilar (tamil, telugu, malayalam, kannada(kannara))

Bu ikki hudud(areal) o‘rtasidagi qadim zamonlardan davom etib kelayotgan o‘zaro aloqalar ikki hudud(areal)da yashovchi xalqlarning tili va madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Hindiston katta hududi aholisiga ko‘p tillilik ya’ni bilingvizm xosdir. Umuman olganda, bilingvizm hozirgi kundagina emas, balki qadimdan Hindiston aholisiga xosdir. 1961 yil ma’lumotlariga ko‘ra, Hindiston aholisining 13%dan ko‘prog‘iga ikki tililik xosdir.

1971 yil ma’lumotlariga ko‘ra, bilingvizmning eng pastki qismida hindiy tilida so‘zlashuvchilar (5.1%), oriy(5.8%), malayalam(7.1%), gudjarati(7.3%), tamillar (8.1%) va bengal (8.7%). Bundan ancha ko‘proq daraja panjoblilar (14.2%), tulugu (14%), kannada (14.4) tillarida so‘zlashuvchilarga xosdir. Eng yuqori darajani esa, urdu tilini ona tili deb bilganlarda 22.1%ni tashkil qiladi. Hindiston aholisining o‘qimishli qismini ikkinchi tili ingliz tilidir. 1961 yil ma’lumotlariga ko‘ra, 220 ming aholi ingliz tilini ona tili sifatida biladi. 10 mln dan ortiq kishi ingliz tilini ikkinchi til sifatida biladi, ya’ni aholining 2% qismi 1971 yil rasmiy hujjatlariga ko‘ra, ingliz tilini ona tili sifatida biladiganlar soni kamayib ketmoqda.

Hindiy tilida so‘zlashuvchi bilingvistlarning soni 9.3 mln ni tashkil qiladi, ya’ni Hindiston aholisining 2%i. Sanskrit tili ham ishlatiladi. 1961 yil ma’lumotlariga ko‘ra, 2.5 ming kishi ona tili sifatida, taxminan 200 ming kishi ikkinchi til sifatida sanskrit tilini biladi. Sanskrit asosan diniy marosimlarning(kulta) tilidir. Sanskrit tili hozirgi hind-oriy tillari uchun “lug‘aviy hazina”dir. Nafaqat bebaho va muqaddas hazinasi, balki terminlari bazasi hamdir.

Hindistonda til vaziyatida diniy e’tiqod bilan bog‘liq muammolar mavjud. Hindistonning asosiy dinlari hinduizm va islomdir, bular Hindiston aholisining 95%ini tashkil qiladi. Hindistonda boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilar ham ko‘p sonlidir: xristian, sikhizm, buddizm, jaynizm va boshqa dinlar.

Hindistonda zamonaviy hind tillari qatorida 2 ta yevropa tillari (ingliz va fransuz tillari) va 3 ta klassik tillari (arab, fors va sanskrit) o‘qitiladi.

Fransuz tili Pondisher shahrida 15 ta maktabda o‘qitiladi.

Arab tili Jammu va Kashmirda 1 ta boshlang‘ich maktabda, Tamilnaduda 6 ta boshlang‘ich va 13 tugallanmagan o‘rta maktabda va Tripurda 14 ta o‘rta

maktabda o‘qitiladi.

Fors tili Jammu va Kashmirda 2 ta boshlang‘ich maktabda o‘qitiladi.

Sanskrit tili Jammu va Kashmirda 2 ta boshlang‘ich maktabda, Radjastxanda 65 ta o‘rta va 12 ta yuqori o‘rta maktabda o‘qitiladi.



Hindistonda ingliz tili o‘qitilishi yuqori darajada turadi. Ingliz tili o‘qitiladigan maktablar anchagina, deyarli barcha shtatlarda ingliz tili o‘qitiladigan maktablar bor. Maxarashtrada 1100 ta maktab, ya’ni Hindistondagi maktablarning 1/8 qismi shu shtatdadir. Bixar shtatida 700 dan ortiq maktabda, Karnatakada ham 700 dan ortiq, Goa, Daman va Diuda 650 dan ortiq, Arunachal-Pradeshda 650 dan ortiq, Andhra-Pradeshda 600 dan ortiq, Nagalendada 400 dan ortiq, Kerala shtatida 350 dan ortiq, Dehlida 350 dan ortiq maktablarda ingliz tili o‘qitiladi. Juda kam sonli ingliz tili maktablari hindiy tili areallarning asosiy shtatlarida (Dehli, Bixar va Radjastxandan tashqari) : Madxiya-Pradeshda 100 tacha, Uttar-Pradeshda - 66 ta, Xaryanada – 19 taga yaqin maktablarda ingliz tili o‘qitiladi.

Sharqiy Hindistonda joylashgan shtatlarda ham deyarli shunday holat: Orissada 21 ta, Gʻarbiy Bengaliyada hammasi boʻlib 19 ta ingliz tili oʻqitiladigan maktablar mavjud.

Eng kam sonli ingliz tili maktablari Tripurda 7 ta va boshqa ittifoqdosh hududlarda (Dehli, Arunachal-Pradesh va Goa, Daman va Diudan tashqari) Andaman-Nikobar orollarida 8 ta, Lakshadvipeda 4 ta, Dadra va Nagarxvelida faqat 2 ta ingliz tili maktablari mavjud.

Hindistonda til doirasi hammasi boʻlib, 6 ta til hududi(lingvoareal)ga boʻlinadi: markaziy, shimoliy, gʻarbiy, sharqiy, shimoliy-sharqiy va janubiy.

Markaziy til hududi(lingvoareal): umumiy tavsif.

Hindiy tilining ishlatilishi, Shimoliy Hindistonning shtatlarida shahar aholisi orasida ustunroq, genetik yaqin boʻlgan til va dialektlar hududlarida keng yoyilgan. Lingvistik doirada bu shtatlar Markaziy til hududi(lingvoareal)ni hosil qiladi. Maʼmuriy-siyosiy doirada markaziy til hududi(lingvoareal) shtatlari – Uttar - Pradesh, Madxiya-Pradesh, Bixar, Xaryana, Ximachal-Pradesh va poytaxt Dehli. Bu shtatlarning qonuniy eʼlon qilingan rasmiy tili hindiydir. Bu hudud(areal)larning hududi 1 mln. kv. km; 1981 yil maʼlumotlariga koʻra, 250 mln. kishini tashkil qiladi.

Mazkur hudud(areal)larda poytaxt Dehlidan tashqari, savodlilik darajasi oʻrta hindlarga qaraganda ancha past.

1981 yil maʼlumotlariga koʻra, savodlilik darajasining eng past koʻrsatkichi Bixar (73.99) va Uttar-Pradesh (72.6) shtatlarida aniqlangan. Markaziy til hududi(lingvoareal)da shahar va qishloq aholisi savodxonligini tenglashtirib boʻlmaydi.

Bu hudud(areal)dagi erkak va ayollar savodxonligini ham solishtirganda katta farq seziladi. 1951 yil maʼlumotlariga koʻra, savodxonlik darajasi erkaklar 50.5%, ayollar 19.1%ni tashkil qiladi.

Markaziy til hududi(lingvoareal): Hindiy va urdu, hudud(areal)ning asosiy tillari sifatida

Hindiy tili hududi, til vaziyatida diniy jihati, muhim ahamiyat kasb etadi, birinchi navbatda ikki asosiy dinning mavjudligi: hindu va musulmon. Ushbu hudud barcha shtatlarida hindular va musulmonlardan tashqari jaynistlar, alohida shtatlarda xristianlar, buddistlar va sikxlar yashaydi.

Hindu va musulmon dinlari diniy-ijtimoiy omillarning taʼsiri natijasida, ushbu hududda ikki til: urdu va hindiy tillari til vaziyatining muhim tarkibiy qismi sifatida vujudga keldi. Bir soʻzlashuv tili *kxari boli* negizida shakllanib, yozuvi va leksik tarkibi jihatidan farqlanadi. Ijtimoiy-lingvistik jihatdan urdu va hindiy tillari

alohida til sifatida ajralib chiqqan va shahar aholisining turli qatamlarida ishlatiladi. Hindiy va urdu tillarining yaqinlashishiga bir qancha omillar ta'sir etadi: lingvistik (Hindiy tilining asosiy so'z boyligi sanskrit orqali, urdu tilining so'z boyligi esa arab-fors tillari orqali), ijtimoiy-psixologik (urdu va hindiy tillari alohida til sifati munosabatda bo'ladi), hamda bu tillarning zamonaviy, rivojlangan, boy adabiyoti ham ta'sir etadi. Hindiy tili hududiy va ijtimoiy jihatdan urdu tilini ishlatilishini chegaralaydi. Bu jarayon adabiyotda o'z isbotini topadi, ya'ni Shimoliy Hindistonning ko'zga ko'ringan yozuvchilari: Premchand(1880-1936), Kaushik(1831-1945), Sudarshan(1895 yil tug'ilgan) Upendranatx Ashk(1910 yil tug'ilgan) va boshqalar o'z ijodlarini urdu tilida boshlab, keyinchalik hindiy tiliga o'tishadi.

Bu jarayon til hududlaridagi bosib chiqarilayotgan gazeta va ishlanayotgan kinolarining sonida ham o'z aksini topgan.

Ushbu til hududida aholining ko'p qismi, hindiy tilini o'z ona tili sifatida biladi. Shu bilan birga, Uttar-Pradesh shtatida aholining 30% i, urdu tilini o'z ona tili sifatida tan oladi: Bidjnorda-32.2%, Moradabadda-41.2%, Rampurda-35,18%.

Hindiy tili hududida urdu tilli aholining ko'p qismi shahar markazlariga to'g'ri keladi. Allaxabadda shahar aholisining - 20%i urdu tilida gaplashadi, Banorasda - 21, Lakxnauda - 27, Aligarxda - 34, Budaun va Bxopalda - 40%.

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1.Hindiston tillarining gorizonta(geografik) stratifikatsiyasi;
- 2.Hindistondagi rasmiy va norasmiy tillari;
- 3.Hindistonda til oilalari va ularning hududlari;
- 4.Hindistondagi rasmiy xorijiy tillari va ularning ishlatilishi;
- 5.Hindistonda sanskrit tilining ahamiyati;
- 6.Hindistonda bilingvizm va ko'ptillilik xususiyatlari, diglossiya.

3-mavzi: Til vaziyati va uning aspektlari

Darsning maqsadi: Til vaziyatining aspektlari va ularning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

Tayanch iboralar: til vaziyati, atama, funksional-lingvistik faktorlar, etno lingvistik yo'nalishi, regional til, rasmiy til, ijtimoiy lingvistika.

Asosiy savollar:

1. Til vaziyati sotsiolingvistikaning aspekti
2. Til vaziyati tushunchasi
3. Til vaziyati o'rganilishi yo'nalishlari
4. Til vaziyatini o'rganilishining vaziyatlari

Asosiy o‘quv materiali qisqacha bayoni:

XX asrning so‘nggi yillariga kelib tilshunoslikda til vaziyati bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator muammolar katta qiziqish bilan o‘rganila boshlandi. Bunda an’anaviy lingvistika bilan bir qatorda uning tarkibiga kiruvchi etnolingvistika, sotsiolingvistikaga doir muammolarni o‘rganish avj oldi. Natijada tilshunoslikda bir necha yangi atamalar vujudga kela boshladi. Shulardan biri bo‘lgan "til vaziyati" atamasi ham birmuncha yangi va murakkab atama hisoblanadi.

Til vaziyati deganda - ma‘muriy, siyosiy, funksional jihatdan davlatni birlashtirib turuvchi va ma‘lum jamiyatda ishlatiluvchi bir yoki bir necha tillardan foydalanishlik holati va shu tillarning rivojlanish darajasi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, diglossiya, bilingvizm va ko‘p tillilik til vaziyatining tarkibiy komponentlari hisoblanadi. Bu esa ko‘p hollarda jamiyatda bir necha tillarning funksional jihatdan bog‘liqligidan dalolat beradi. Ko‘p tillilik Hindiston shtatlari misolida yaqqol ko‘rinadi:

	Shtatlar	Markazi	Rasmiy tillar	Boshqa tillar
1	Andhra Pradesh	Haydarobod	Telugu	urdu, hindiy, ingliz
2	Arunachal Pradesh	Itanagar	Mahalliy til shakllari	mampa, lilji, nishi, anatani
3	Assam	Dispur	Assamiy	hindiy, ingliz, bengaliy
4	Bihar	Patna	Hindiy	maythiliy, urdu, ingliz
5	G‘arbiy- Bengaliya	Kalkutta	bengaliy	hindiy, ingliz
6	Goa	Panaji	konkaniy, marathiy	hindiy, ingliz, portugal
7	Gujarat	Gandhinagar	gujarotiy	sindhiy, marathiy, hindiy, ingliz
8	Jammu va Kashmir	Srinagar	kashmiriy, urdu	dari, meythili, urdu, ladakhi, hindiy, ingliz
9	Jharkand	Rangi	Hindiy	hindiy, meythiliy, urdu

10	Karnataka	Bangalor	kannada	tamil, hindiy, urdu, ingliz
11	Kerala	Thiruvantxapur	malayalam	tamil, hindiy
12	Madhya Pradesh	Bhopal	Hindiy	urdu, marathiy, ingliz
13	Manipuri	Imphol	manipuriy	hindiy, ingliz
14	Maharashtra	Mumbay	marathiy	gujarotiy, hindiy, ingliz
15	Meghalay	Shilong	Tribal	assamiy, xasi, goro, hindiy, ingliz
16	Mizoram	Aizavol	Mizo	hindiy, ingliz
17	Nagalend	Koxima	Angani	hindiy, ingliz, angami, sima
18	Orissa	Bhubaneshvar	Oriya	bengaliy, hindiy, ingliz
19	Panjob	Chandigarh	panjobiy	hindiy, ingliz, urdu
20	Rajasthan	Jaypur	hindiy	rajasthoni, ingliz
21	Sikkim	Gangtok	bho'tna	nepaliy, hindiy, ingliz
22	Tamilnadu	Chennay	tamiliy	telugu, malayalam, kannada, hindiy, urdu, ingliz
23	Tripura	Agartala	tripuriy	manipuriy, kakbark, bengaliy, hindiy, ingliz
24	Uttar - Pradesh	Lakxnau	hindiy	urdu, ingliz
25	Uttaranchal	Dexradun	hindiy	hindiy, urdu
26	Harayana	Chandigarx	hindiy	panjobiy, ingliz
27	Himachal Pradesh	Shimla	hindiy, pahariy	ingliz

28	Chhattisgarh	Raypur	hindiy	hindiy
----	--------------	--------	--------	--------

	Ittifoq hududlar	Markazi	Rasmiy tillar	Boshqa tillar
1	Andaman va Nikobar orollari	Port Blanr	Mahalliy til shakllari	tamiliy, bengaliy, hindiy, ingliz
2	Dadra va Nagar xaveli	Silvassa	gujarati, maratxi	bhili, hindiy, ingliz
3	Daman va Diu	Daman	-	gujarotiy, marathiy, hindiy, ingliz
4	Lakxadvip	Kavarati	-	malayalam, hindiy, ingliz
5	Pondicheri	Pondicheri		tamili, hindiy, ingliz, ingliz
6	Chandigarx	Chandigarh	panjobi	hindiy, panjobiy, ingliz
	Poytaxt shahar			
1	Dehli	Yangi Dehli	hindiy, ingliz	panjobiy, urdu

Mamlakat etnik tarkibining rang - barangligi va unda ko‘plab tillar va til shakllari (til, sheva, lahjalar)ning qo‘llanilishi Hindiston til vaziyatini murakkablashtiradi. Natijada, turli xil hal etilishi lozim bo‘lgan muammoli masalalar yuzaga keladi. Bunday til vaziyati bilan bog‘liq muammolarni yechish, uning sabablarini o‘rganish esa Hindiston til vaziyatiga doir tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi. Zero, mamlakatda til vaziyatining salbiy holatda bo‘lishi, ko‘plab turli muammolarni, hattoki siyosiy nizo va noroziliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bo‘lgani kabi ikkinchi jahon urushidan so‘ng Hindistonda ham jamiyatning har bir sohasida isloxotlar avj oldi. Ayniqsa, mustaqillikdan so‘ng milliy tiklanish chog‘ida halqning madaniy, ma‘rifiy,

savodxonlik salohiyatini oshirish uchun til bilan bog'liq muammolarni hal qilmasdan biron natijaga erishib bo'lmaydi. Chunki biron tilning rivojlanishida jamiyat muhim rol o'ynay ekan, o'z navbatida jamiyatning barcha sohalarini taraqqiy toptirishda ham tilning ahamiyati cheksizdir.

Mustamlaka Hindistonda ish yuritishda, davlat idoralarida, o'rta va oliy ta'limda ingliz tili yetakchilik qilgan. Mustaqillikdan so'ng esa hindiy tili Hindistonning davlat va milliy tili sifatida tan olindi. Lekin, hukumat tomonidan 1965 yilgacha ingliz tilining amalda qo'llanishiga ruhsat berildi. Konstitutsiyasining 8-qismida mamlakatning milliy tillari sifatida qayd etildi (hozirda esa 18 ta). Lekin 1961 yilgi ma'lumotlarga ko'ra Konstitutsiyada qayd etilgan tillardan tashqari yana 154 ta til borligi ham qayd etiladi.

Hindistonda yuzdan ortiq tillar bo'la turib, nima uchun aynan hindiy tili davlat tili va milliy til darajasiga ko'tarildi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki hindiy tilidagi adabiyot va uning rivojlanish darajasi ko'pgina boshqa Hindiston tillaridagi adabiyotlardan unchalik yuqori emas. Hindiyning ustunlik qilishiga faqatgina mamlakat aholisining ko'pi shu tilda gaplashishi sabab bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra 1961 yil hindiyda mamlakat aholisining 30% gaplashgan bo'lsa, 2001 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 50% ga yetgan.

Hindiston til vaziyatini o'rganishda, mamlakatda mavjud tillarning tarixiy rivojlanish jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Hindiston tillari asosan quyidagi ikki katta til oilalariga bo'linadi:

1. Hind - Yevropa tillari oilasi. Ularga hind - oriy tillar guruhiga manipuriy, marathiy, oriya, panjobiy, sanskrit, sindhiy, urdu, hindiy tillari kiradi;

2. Dravid tillari oilasi. Ularga kannada, malayalam, telugu, tamili tillari kiradi.

Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, Hindistonda mavjud tillar ijtimoiy-funksional jihatdan ham turlichadir. Ya'ni, mamlakatda rasmiy davlat, shtat va regional tillar bor. Shuningdek, ma'lum hududlargagina yoki kichik hududlarga xos bo'lgan til shakllari ham mavjud. Albatta, bunday vaziyatning vujudga kelishi ko'p millatli va elatli mamlakatlar uchun tabiiy xol hisoblanishi mumkin. Lekin fikrimizcha, bu holat Hindistonda juda murakkab bo'lgani holda, til vaziyatiga doir har tomonlama izlanishlar olib borishni taqazo etadi.

Hindiston til vaziyatini o'rganishda shtat va ittifoq hududlarining til vaziyatini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Shtatlar va Ittifoq hududlarining til vaziyatini o'rganishga mikrosistema tarzida yondoshsak, mikrosistemalar birgalikda umum Hindiston til vaziyatini - makrosistemani tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda, Hindiston shtatlari yoki Ittifoq hududlarining til vaziyatini o'rganmay turib, Hindiston til vaziyatini tadqiq etish va uning umumiy ko'rinishini ifoda etish mushkul. Zero, mikrosistemalar birlashgan holda makrosistemani

tashqil qilar ekan, birinchi navbatda mikrosistemalarga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) Mustaqillikkacha Hindistonda til vaziyati?
- 2) Mustaqillikdan so'nggi til vaziyatiga doir o'rganishlar?
- 3) Hindiston tillari qaysi til oilalariga mansub?
- 4) Keltirilgan jadval bo'yicha ikki tillilik va ko'p tillilik turlarini anglatish
- 5) Hindiston til vaziyatini ifoda etishda mikro va makrosistema tushunchalari?

4-mavzu: Regional til vaziyati (Rajasthon shtati misolida)

Darsning maqsadi: Hindistondagi har bir til hududining til vaziyati murakkabligini Rajasthon shtatining til vaziyati misolida tasvirlash

Tayanch iboralar: rajasthoniy tili atamasi, shevalar, hind-oriy tillar, yozuv, rasmiy tillar, hindiy tili hududi

Asosiy savollar:

- 1) Rajasthoniy tili atamasi
- 2) Rajasthoniy tilining taraqqiyot davri
- 3) Rajasthoniy tilining hozirgi holati
- 4) Rajasthoniy tili xususidagi olimlarning fikrlari

Asosiy o'quv materialini qisqacha bayoni:

Rajasthoniy tili tarixidan. Rajasthon shtati til vaziyatini, til bilan bog'liq jarayonlarni o'rganishda "Rajasthoniy" tili atamasiga izoh berish g'oyatda muhimdir. Rajasthoniy tili deganda Rajasthon shtatida ishlatilib, hindiy tili arealiga kiruvchi, o'zining shevalari bilan birgalikda bir butunlikni tashkil qiluvchi, shuningdek, ham adabiy, ham so'zlashuv uslublarining barcha shakllariga ega til tushuniladi. Rajasthoniy so'zi bevosita shtatning nomi, Rajasthon so'zidan olingan bo'lib, hindiy tilidagi izohli lug'atlarda qayd etilmagan. Ammo, ikki jildlik "Xindi - ruskiy" lug'atida rajastxoniy so'zining kuyidagicha ma'nolari ko'rsatilgan:

1. Rajasthon shtatiga aloqador;

Agar Rajasthoniy tilining tarixiy ildizlariga nazar solsak, albatta ko'pgina hind-oriy tillari kabi bosqichlarni bosib o'tganligining guvohi bo'lamiz. Rajasthoniy tili gurjari apabharanshasi tarkibida vujudga kelgan va dingal nomi bilan iste'molda bo'lgan.

Rajasthoniyl tilining qaysi davrdan shakllana boshlaganligini aniq aytish mushkul. Lekin shunday bo'lsada, taxminlarga ko'ra, II asrning o'rtalarida rajastxoniy apabhranshasidan ajralib, mustaqil til sifatida rivojlana boshlagan.

Rajastxoniy dingal nomi bilan mashxur bo'lib, bu nom pashchimi rajastxani, ya'ni marubhasha yoki marvari adabiyotiga berilgan unchalik qadimiy bo'lmagan nomdir. Bu atama 19 asrdan ishlatila boshlangan va Jodxpurlik Kaviraja Bankidasning "Kunavi Batili " asarida ilk bor tilga olingan. Undan so'ng esa uning ukalari va jiyani Budxajilar ham marvari shevasidagi tillar uchun dingal atamasini qo'llay boshlaganlar.

Ba'zilar dingal va marvari bir-biridan farq qiladi degan fikrlarni ham bildiradilar. Lekin aslida dingal va marvarining farqini xuddi adabiy va og'zaki hindiy kabi tavsiflash mumkin.

1. Hindiy tili areali deganda hindiy tilida so'zlashuvchi Dehli territoriyasi, Uttar-Pradesh, Madhya Pradesh, Himachal Pradesh, Bihar. Haryana, Rajasthon shtatlarining xududlari tushuniladi. Ushbu areal Hindistonda mavjud til areallarining eng kattasi hisoblanadi. Maydoni 1360000 kv. km, aholisi 80 mln. dan ko'proq.

Marvari shevasi nima uchun dingal deb nomlanganligi to'g'risida ham turli fikr va mulohazalar mavjuddir. Jumladan, dingal so'zining asl ma'nosi "qo'pol" demakdir. Yana boshqa fikrlarga ko'ra, dingal avvalda dagal, so'ngra pingal shaklida ishlatilgan bo'lib, keyinchalik dingal nomini olgan. "Dingal" nomi biron-bir tilni anglatmaydi, faqatgina she'r turining nomi"deya ta'kidlaydi, Hindistonlik Xari Prasad Shastri.

Yozuv. Rajasthoniyl tilining yozuvi ko'prok devanagariyl yozuviga o'xshaydi. Farqini faqatgina ba'zi xarflarda kuzatish mumkin. Lekin, tafovo'tlar kundan-kun yuqolib borayotganligi to'g'risidagi fikrlar ham mavjud.

Adabiyot. Rajasthoniyl tilidagi adabiyot an'analari tarixi XII asrga borib taqaladi. Rasa janri qadimgi va o'rta rajasthoniyl tilida keng tarqalgan bo'lib, bu janrda, asosan, Rajasthonning turli xalq og'zaki ijodi, buyuk hukmdorlar to'g'risidagi qo'shiqlar, halq qahramonlari va o'sha davr tarixi to'g'risidagi ashulalarga keng o'rin berilgan edi.

O'rta asrlarda shimoliyl Hindiston sekin-asta musulmon hukmdorlari tomonidan zabt etila borishi bilan, oddiy xalq orasida bhakti harakati avj olgan. Chunki, ular bu bilan o'zlariga ma'naviyl jihatdan panoh va himoya topardilar. Aynan bhakti rivojlanib borayotgan bir davrda rajasthoniyl adabiyotida qahramonlikni tarannum etuvchi raso janridan bxaujan "madhiya" janriga o'tilgan. Keyinchalik bu janrda ko'plab rajastxonlik shoirlar ijod qilganlar.

Rajasthoniyl adabiyotining taraqqiyot davri XV asrga to'g'ri keladi. Bu davrda butun Rajasthoniyl she'riyatida asosan marvari, pingal, braj kabi etnik

guruhlarning lahjalari asosida shakllangan dingal adabiy uslubi qo'llanila boshlangan. Dingal adabiy uslubining keng yoyilishida Hindistonning o'rta asrlarda mavjud bo'lgan mahoratli ashulachilari, baxshilarini o'ziga birlashtirgan charan,bhat kabi kastalari muhim rol o'ynagan.

XVIII asrning 2-yarmidan XIX asrning o'rtalariga qadar rajasthoniya adabiyoti uchun "oltin asr" bo'lgan. Chunki bu davrga kelib rajastxoniyda yirik asarlar yaratildi. Charan kastasiga mansub bo'lgan Rajasthonning o'rta asrlardagi eng yirik shoirlardan biri Surajmal yoki Suryamalning 1851-1863 yillardagi xalq qo'zgoniga bag'ishlab yozilgan, ammo tugatilmagan "Virsatsai" (qahramonlar to'g'risida yetti yuz satr) nomli poemasi shular jumlasidandir.

Zamonaviy Hindiston adabiyoti XIX asrning 2-yarmidan rivojlana boshlangan. She'riyat brajda, nasr esa hindiyda shakllana boshlangan. Ona tilining mavqeini ko'tarish va xalqning qiziqishini orttirish maqsadida Shivachandr Bharatiya (1853-1919) Rajasthoniya ijod qilgan va asosan pe'salar yozgan.

Hindiston mustaqillikka erishgach, Rajasthoniya adabiyotining rivojlanishiga keng imkoniyat ochildi. Rajasthoniya ijod qiluvchi ijodkorlar soni ham birmuncha ortdi. Boshqa janrga qaraganda she'riyat ancha gurrkiradi. Narayan Sinx Bhati (1930 y.) zamonaviy Rajasthonida ijod qiluvchi yirik shoirlardan edi. Rajasthon shtati shoirlari xalq ashulalarini shoirona tarzda qayta ishladilar. Bu esa Rajasthoniya adabiyotini boyitishga va rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi.

Rajasthoniya nasr janri ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan bo'lsada, boshqa hind tilidagi nasr janrlari kabi unchalik rivojlanmagan. Rajasthoniya adabiyotining rivojida hikoya janri asos bo'lgan. Shu bilan bir qatorda ocherk janri ham ma'lum darajada o'z aksini topgan. Rajasthoniya tilining hozirgi holati xususida quyidagicha ma'lumotlarni keltirishimiz mumkin.

Hindiston Konstitutsiyasining 8-qismida 18 ta til mamalakatning asosiy rasmiy tillari sifatida qayd etilgan. Ular:

1. Assamiy
2. Bengaliy
3. Gujarotiy
4. Kannada
5. Kashmiriy
6. Konkaniy
7. Malalyalam
8. Manipuriy
9. Marathiy
10. Nepaliy
11. Oriya
12. Panjobiy

13. Sanskrit
14. Sindhiy
15. Tamil
16. Telugu
17. Urdu
18. Hindiy

Ro'yxatda Rajasthon shtatining adabiy tili bo'lmish Rajasthoniyl tili qayd etilmagan. Umuman olganda "Rajasthoniyl tili" atamasi birmuncha yangi hisoblanadi. Hozirda ushbu til Rajasthon shtatining rasmiyl tili deb e'lon qilingan bo'lsada, amalda esa ingliz tilining yuqori darajadagi mavqei sezilib turadi.

Rajasthoniyl esa ishlatilish doirasi va jamiyatning turli sohalarda tutgan mavqei jihatdan ingliz va hindiy tillaridan keyingi o'rinda turadi. Albatta, Rajasthoniyl tilini rasmiyl til darajasiga ko'tarish va Hindiston Konstitutsiyasining 8-qismiga kiritish borasida Rajasthonda bir necha bor harakatlar qilingan. 1967 yil Rajasthoniyl tili shtatning rasmiyl tili bo'lishi kerak degan talab ilgari surilgan va bunga shtat hukumati ham ijobiy fikr bildirgan edi. Shtat hukumati ushbu talab bilan Hindiston Adabiyot Akademiyasiga murojaat etgan. Lekin talabga nisbatan Akademiya tomonidan rad javobi berilgan. Natijada Rajasthonda rajasthoniyl tilini himoya qilib uni rasmiyl til darajasiga ko'tarish maqsadida ko'pgina namoyishlar o'tkazilgan.

Harakatlar natijasida 1968 yil fevralda Hindiston Parlamentining Xalq Palatasi Rajasthoniyl tilini Hindiston Konstitutsiyasining 8-bo'limiga kiritish to'g'risidagi loyihani ko'rib chiqdi. Bu loyiha Bikaner knyazligining sobiq maharajasi Karl Sing tomonidan taqdim etilgan edi. Lekin Parlament Rajasthoniyl tili shtatning o'zida ham hech qanday mavqega ega emasligi kabi bahonalarni rukach qildi va 38 ta ijobiy va 92 ta qarshi ovoz bilan ushbu loyiha rad etildi. Natijada Rajasthoniyl tili masalasi yana yechimsiz qoldi.

Va nihoyat 1971yili Rajasthoniyl tili Hindiston Adabiyot Akademiyasi tomonidan Rajasthon shtatining mustaqil adabiyot tili sifatida tan olindi. Keyinchalik Akademiya tomonidan Rajasthoniyl yozilgan eng yaxshi asarlar uchun bir qator mukofotlar ham tayinlandi. Rajastxan-Hindiston tashkilotining "Visni Xari Daemiya", Kalko'tta shahridagi "Rajasthoni pracharani Sabha" uyushmasining nasriyl asarlar uchun "Kemka" va she'riyl asarlar uchun tavsiya etgan "Jaju" mukofotlari shular jumlasidandir.

Hozirda ham bir qator tashkilotlar rajasthoniyl tili va adabiyotini rivojlantirish uchun jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Bunda Rajasthoniyl tili jamiyati (Jaypur shahri), Rajasthon Adabiyot Akademiyasi (Udaypur shahri), folklor instituti (Borunda shahxri) kabilarning hissasi katta. Ayniqsa, rajasthoniyl tilida cjop etiluvchi "Haraval" jurnali rajasthoniylni targ'ib etishda muhim rol

o'ynamoqda. Shuningdek, rajasthoniya turli mushoiralar, kitob ko'rgazmalarini o'tkazish, o'rta va oliy o'quv yurtlarida Rajasthoniya alohida fan sifatida o'qitish kabi masalalar rajasthoniya rivojlantirishda asosiy manbalardan biri bo'lib qolmoqda.

Albatta, rajasthoniya tilini mustaqil adabiyot tili sifatida tan olinishi osonlikcha kechgani yo'q. Rajasthoniya ko'plab adabiyotlar bo'lishiga qaramay, olimlar, tilshunos va hindshunoslar rajasthoniya haqiqatdan ham mustaqil til talablarga javob berish yoki bermasligi borasida turli fikr va mulohazalar bildiradilar. Ushbu masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni o'rganish, tahlil qilish natijasida quyidagicha xulosalarni keltirib o'tish darkor.

Umuman olganda, hozirda rajasthoniya tili va uning kelib chiqishi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Bu esa ushbu atamani tahlil qilishning naqadar murakkabligidan dalolat beradi.

Ba'zi olimlar rajasthoniya til deb atasalar, ba'zilar esa uni nafaqat til, balki sheva yoki tilning bir shakli deb ham bo'lmaydi degan fikrlarni bildiradilar. Ushbu fikrlarni nazarda tutgan holda olimlar fikrini ikki guruhga ajratishimiz mumkin.

Birinchi guruhga kiruvchi olimlar rajasthoniya tilini hindiy tili arealiga kiruvchi til deb ta'kidlaydilar. Ya'ni rajasthoniya tilini mustaqil til sifatida ko'rsatadilar.

Ingliz olimi J. Grirson (1850-1940) hindiy tili arealiga hindiy va urdu tillaridan tashqari yana beshta mustaqil tilni kiritadi. Ular:

1. G'arbiy-hindiy
2. Sharqiy - hindiy
3. Bihariy
4. Rajasthoniya
5. Pahariy

Shuningdek, hindistonlik tilshunos Doktor Keshavadat Ruvali ham Grirson fikrini aynan takrorlaydi.

Ikkinchi guruh olimlarining ba'zilar rajasthoniya umuman til deb hisoblamaydilar. Ba'zilar esa sheva yoki til va sheva orasidagi tilning bir shakli deb qaraydilar. Masalan: Hindistonlik olim Ramvilas Shukla o'zining ("Hind adabiyoti tarixi" 1920 yil) kitobida rajasthoniya tilini hindiy tilidan umuman mustaqil bo'lgan til sifatida ko'rsatadi. Lekin u yana qo'shimcha qilib, aslida rajasthoniya tilining hozirgi holatini na til na sheva deb atash mumkinligini, balki sheva va til orasidagi tilning bir shakli ekanligini qayd etadi.

Mustaqil ish topshiriqlari:

- 1) Rajasthoniyl tili atamasiga izoh bering.
- 2) Rajasthoniyl tilining taraqqiyot davri
- 3) Rajasthoniyl tilining hozirgi holati
- 4) Rajasthoniyl tili xususidagi olimlarning fikrlari
- 5) Hindiyl tilida so'zlashuvchilar hududi (hindi speaking area) atamasining ma'nolari va qo'llanilishi.

GLOSSARIY

	Atamani ng o'zbek tilida nomlanis hi	Atamaning hindiyl tilida nomlanishi	Atmanin g hindiyl tilida nomlanis hi	Atmanin g rus tilida nomlanis hi	Atamaning ma'nosi
1	Alfavit	अक्षर माला	Alhabet	Алфавит	Alfavit yunon alifbosidagi birinchi ikki harfning nomi (alpha va beta) dan.
2	Fonetika	ध्वनि विचार	Phonolog y	Фонетик а	Fonetika (yunon. Phonetike – tovushga oid – phone -- tovush) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini ; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlari va shakllarini o'rganuvchi bo'limi.
3	Harf	अक्षर	Letter	Буква	Tovushning yozuvda ifodalanishiga harf deyiladi.
4	Tovush	ध्वनि स्वर	Sound	Звук	Nutq a'zolarining artikulyatsiyasi bilan hosil bo'ladigan eng kichik nutq birligi.
5	Yozuv	लिपि	Script	Письмо	Yozuv nutqni qog'ozda (yoki boshqa narsada) aks ettirish

					uchun xizmat qiladigan harfiy grafik shakllar tizimi, shu tizimga asoslanuvchi aloqa vositasi.
6	Unli tovushlar	स्वर	Vowels	Гласные звуки	Unli tovush – og`iz bo`shlig`ida hech qanday to`siqqa uchramay hosil bo`ladigan, tarkibi ovozdin iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovush.
7	Undosh tovushlar	व्यञ्जन	Consonants	Согласные звуки	Undosh tovush – og`iz boshlig`ida turli to`siqlarga uchrab paydo bo`ladigan, tarkibi faqat shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovush.
8	Diftong	दिफ्ताङ्ग	Diftongs	Дифтонг	Diftong (yun.di(s) ikki karra+photongos – ovoz, tovush). Ikki tovushdan tarkib topgan unli bir bo`g`in tarkibida keluvchi, shunga ko`ra bir tovushga yaxlitlanuvchi unli. Diftong o`zbek tilida yo`q.
9	Serebral tovush	सेरेब्रल	Cerebral	Церебральные звуки	Hindiy tilida uchta tanglay tovushlari mavjud – t, d, r. Ulardan t va d lar talaffuz jihatdan ingliz tilidagi t va d tovushlarini talaffuz etish jarayonida til uchi tanglay tepasiga tegib turadi, hindiy tilidagi t va d tovushlarining talaffuzida esa til tanglay tovushiga biroz tegadi-yu tezda oldiga sirg`alib boradi.
10	Nafas undosh tovushlar	सधोष व्यंजन	Aspirate consonants	Преддыхательные звуки	Nafas bilan talaffuz etiluvchi undoshlar: – kh, gh, chh, jh, th, dh, rh, th, dh, ph, bh. Bu

					undoshlarni aytishda ularga mos nafaasiz undosh tovushlar bilan bir qatorda kuchsiz,sezilar –sezilmas h tovushi ham qo‘shib talaffuz qilinadi.
11	Sandhi bog‘lanish	सन्धि	Sandhis	Сандхи (соединение)	Ikki so‘z birga ishlatilganda birinchi so‘zning oxirgi tovushi va ikkinchi so‘zning birinchi tovushi birikib ketadi. Ana shu birikish sandhi deyiladi.
12	Unlilar sandhisi	स्वर सन्धि	Joining of vowels with vowels	Сандхи гласных	1.Unlilar sandhisi (स्वर सन्धि). Bunda birikuvchi ikkala tovush ham unli bo‘ladi.
13	Undoshlar sandhisi	व्यंजन सन्धि	Joining consonant with vowel or consonant	Сандхи согласных	2.Undoshlar sandhisi (व्यंजन सन्धि). Bunda birikuvchi tovushlardan birinchisi undosh bo‘lib ikkinchisi unli yoki undosh bo‘ladi.
14	Visarga sandhisi	विसर्ग सन्धि	Joining vicarg	Сандхи висарга	3.Visarga sandhisi. Bunda birinchi tovush visarga va ikkinchi tovush unli yoki undosh bo‘ladi.
15	Morfologiya	शब्द-विचार	Morfologiya	Морфология	(yun.morphe – shakl+logos – ta’limot) so‘z shakllari haqidagi grammatik ta’limot.
16	Ot	संज्ञा	Noun	Имя существительное	Predmetning ma’nosini bildiruvchi so‘zlar turkumi va shu turkumga oid muayyan so‘z. Predmetlik grammatikada juda keng tushuncha bo‘lib, kishi(odam,inson), narsa (paxta,suv), hodisa

					(to‘olon,kurash) va shu kabilarni o‘z ichiga oladi. Otlar ma‘no jihatdan va ifodalaydigan tushunchaning xususiyatiga ko‘ra atoqli ot va turdosh ot; aniq ot va mavhum ot; yakka ot va jamlovchi ot kabi turlarga bo‘linadi.
17	Atoqli ot	व्यक्तिवाचक संज्ञा	Proper noun	Имя собственное	Biror turdagi predmetlardan birini bildiruvchi, ayrim shaxs yoki narsaning nomi bo‘lib xizmat qiluvchi ot.
18	Turdosh ot	जातीवाचक संज्ञा	Common noun	Имя нарицательное	Bir turdagi predmetlarning umumiy nomi bo‘lib xizmat qiladigan ot.
19	Jamlovchi ot	समूहवाचक संज्ञा	Collective noun	Имя собирательное	Bir xil redmetlarning to‘dasini,jamini bildiruvchi otlar.
20	Moddiy ot	द्रव्यवाचक संज्ञा	Material noun	Вещественное существительное	Ma‘lum bir narsa-hodisa,harakat, belgi kabilar haqidagi tushunchaga mos keluvchi material ma‘no; so‘zning material (asosi) bildiradigan ma‘no.
21	Mavhum ot	भाववाचक संज्ञा	Abstract noun	Абстрактное существительное	Mavhum tushunchani ifodalovchi ot
22	Jins	लिंग	Gender	род	Hindiy tilida ikkita grammatik jins mavjud: पुल्लिंग – pulling muzakkar jinsi va स्त्रीलिंग – striling muannas jinsi.
23	Muzakkar	पुल्लिंग	Masculine	мужской род	Hindiy tilida muzakkar jinsni anglatuvchi ko‘rsatkichlar mavjud emas, shu sababli ularning jinsini ma‘nolari

					bilan birga yodlab olish zarur. Lug`atlarda otlarning jinsi shartli ravishda ko`rsatiladi.
24	Muannas	स्त्रीलिंग	Feminine	женский род	Hindiy tilida muannas jinsni anglatuvchi ko`rsatkichlar mavjud emas, shu sababli ularning jinsini ma`nolari bilan birga yodlab olish zarur. Lug`atlarda otlarning jinsi shartli ravishda ko`rsatiladi.
25	Son (kategoriya)	वचन	Number	число (категория)	Grammatik miqdor ma`nosini ifodalovchi shakllar tizimi. Son kategoriyasining ikki turi bor: 1) birlik son 2) ko`plik son.
26	Birlik	एकवचन	Singular	Единственное число	Son kategoriyasining bir turdagi narsa-buyumlardan bittasini (yakkalikni) bildiruvchi shakli.
27	Ko`plik	बहुवचन	Plural	Множественное число	Son kategoriyasining (birlik songa qarama-qarshi holda) predmetning birdan ortiqligini, ko`pligini bildiruvchi shakli.
28	Kelishik	कारक	Case	падеж	Ot yoki otlashgan so`zning fe`lga, otga yoki boshqa bir turkum so`zga munosabatini ifodalab, tobeligini ko`rsatuvchi shakllar tizimi.
30	Vositasiz (bosh) kelishik	प्रधान कारक	Nominative	прямой падеж	Vositasiz kelishik shakl jihatidan o`zbek tilidagi bosh va tushum kelishigining qo`shimchasiz shakliga to`g`ri keladi. Vositasiz kelishigidagi otlar gapda ega, vositasiz to`ldiruvchi,

					qo'shma kesimning ot qismi vazifasini bajaradi.
31	Vositali kelishik	अप्रधान कारक	Oblique case	косвенный падеж	Hindiy tilida o'zbek tilidan farqli ravishda, maxsus kelishik qo'shimchasi yo'q. Gapda so'zlar – ort ko'makchilar/posleloglar/orqali bog'lanadi. Otning ort ko'makchi bilan birikmasi vositali kelishikni hosil qiladi.ort ko'makchi o'zi boshqarib kelayotgan so'zdan so'ng qo'yiladi.
32	Murojaat kelishigi	सम्बोधन कारक	Vocative	звательный падеж	Murojaat kelishigi nutq qaratilgan shaxsga nisbatan ishlatiladi. Hindiy tilida murojaat kelishigi otning soni va tugagan harfiga ko'ra turlicha yasaladi.
33	Olmosh	सर्वनाम	Pronoun	Местоимения	Ot,sifat,son kabi so'zlar o'rnida qo'llaniluvchi,predmet, belgi, miqdorga ishora qiluvchi so'zlar turkumi.
34	Kishilik olmoshi	पुरुषवाचक सर्वनाम	Personal pronoun	личные местоимения	Shaxs bildiruvchi olmoshlar. Bu olmoshlarning shaxs va songa ko'ra quyidagi turlari bor: I shaxs birligi va I shaxs ko'pligi olmoshi: men – biz; II shaxs birligi va II shaxs ko'pligi olmoshi: sen – siz; III shaxs birligi va III shaxs ko'pligi olmoshi: u – ular.
35	K-guruhi	कवर्ग	Gutlurals	группа-к	Bu guruhga kiruvchi undoshlar. क्, ख्, ग्, घ्, ङ्
36	Ch-guruhi	चवर्ग	Palatals	группа-ч	Bu guruhga kiruvchi undoshlar. च्, छ्, ज्, झ्, ञ्.

37	T-guruhi	टवर्ग	Lenguals	группа-Т	Bu guruhga kiruvchi undoshlar. ट्, ठ्, त्, ड्, ढ्, ङ्, ण्
38	T-guruhi	तवर्ग	Dentals	группа-т	Bu guruhga kiruvchi undoshlar. त्, थ्, द्, ध्, न्
39	P-guruhi	पवर्ग	Labials	группа-प	Bu guruhga kiruvchi undoshlar. प्, फ्, ब्, भ्, म्
40	Yarim unlilar	अन्तस्थ	Semivowels	щипящие е	Hindiy tilida 2 ta yarim unli tovush mavjud bo'lib, ular y va v harflaridir. "y" tovushi yengil va ravon talaffuz etiladi. Uni talaffuz etish jarayonida tilning yon chekkasi yuqori tishlarga yengilgina tegadi, tilning old qismi esa tekis holda yotadi. "v" tovushi lab va tish yordamida talaffuz qilinadi. hindiy tilida bu tovush talaffuzi unli tovushga yaqin bo'ladi. Uning talaffuzi pastki labni yuqori tishlarga birozgina tekkizilgan holda kuch ishlatmasdan yengilgina amalga oshiriladi.
41	O'zlashma	आगत	Loan word	Займованные	Hindiy tilida arab va fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ko'p uchraydi. Ular bilan birga hindiy tilida mavjud bo'lmagan tovushlar ham kirib kelgan. Ular quyidagilar: क्, ख्, ग्, फ्, ज्।
42	Matra	मात्रा	Signs	मатра	Hindiy tilida unli tovushlar to'liq, ya'ni alifbo ko'rinishida faqat so'z yoki bo'g'in boshida yoziladi.

					Unli harf undoshdan so‘ng kelib u bilan birga bir bo‘ginni tashkil qilsa, u to‘liq shaklda emas, balki maxsus belgilar orqali ifodalanadi, bunday belgilar matralar deb ataladi.
43	Chandra-bindu	चंद्रबिंदु	Half-nasal	Чандраб инду	Hindiy tilida burun unlilari (ँ) chandrabindu ishorasi bilan belgilanadi. Bu belgi burun unlisining ustiga qo‘yiladi.
44	Anusvara	अनुस्वार	Nasal	анусвара	न,ड,ञ,ण harflari undoshlar oldidan kelganda odatda nuqta (ं) ko‘rinishidagi belgi bilan ifodalanadi va bu belgi “anusvara” deb ataladi. Anusvara “n” tovushi qaysi harfdan oldin kelsa, o‘sha harfning ustiga qo‘yiladi.
45	Visarga	विसर्ग	Visarg	विसर्ग	Visarga belgisi chuqur nafas kuchi bilan hosil qilinadigan tovushni bildiradi. Bu belgi so‘z yoki bo‘gin oxiriga vertikal qo‘sh nuqta (:) qo‘yish bilan ifodalanadi. Transkripsiyada visarga belgisi “h” harfi bilan belgilanadi. U asosan sanskrit so‘zlarida uchraydi.
46	Ligatura	संयुक्त व्यंजन	Conjunct consonants	Лигатура	Ligatura – undoshlar birikmasi. Oralarida unli harf bo‘lmagan ikki yoki uchta undoshning birikma holda yozilishi ligatura deyiladi. Ligatura, ya’ni ikki yoki uchta undosh birikmasini

					yo'zish uchun har bir harfning o'ziga xos belgisini ajratish lozim bo'ladi.
47	Egalik olmoshlari	उत्तम मध्यम अन्य पुरुषवाचक	First second, third person	Прятежа тельное местои- мение	Hindiy tilida quyidagi egalik olmoshlari mavjud: मेरा – mening, तेरा-sening, इसका-buning, उसका-uning, हमारा-bizning, तुम्हाराsening, sizning, आपका-sizning, इनका-bularning, उनका-ularning. Egalik olmoshlari o'zlariga tegishli otlarning jinsi va soniga qarab o'zgaradi. Muzakkar jinsida ularning so'nggi harfi birlikda –आ, ko'plikda esa -ए, muannas jinsida doim –ई harfi yoziladi.
48	O'zlik olmoshi	निजवाचक सर्वनाम	Reflexive pronoun	возвратн ые местои- мения	Aniq, muayyan yakkalikni belgilovchi, kishilik olmoshi yoki ot bilan kelib, uni ta'kidlab ko'rsatuvchi olmosh – o'z; siz o'zingiz, akamning o'zi kabi. Bu olmosh barcha kelishik va egalik shakllarida qo'llana oladi.
49	Ko'rsatish olmoshi	निश्चयवाचक सर्वनाम	Demonstrative pronoun	Указательное местои- мение	Shaxs, predmet, belgi va h.k larni ko'rsatishni ta'kidlashni bildiruvchi olmoshlar: bu, shu, o'sha kabilar.
50	Noaniq olmosh	एनिश्चयवाचक सर्वनाम	Indefinite pronoun	Неопределенное местои-	Predmet, belgi kabilar haqida noaniq tasavvur anglatuvchi, ularga tahminli ishora

				мение	qiluvchi olmoshlar.
51	Bog`lovchi olmosh	सम्बंधवाचक सर्वनाम	Relative pronoun	Соединительное местоимение	Ergash gapni bosh gapga bog`lash uchun xizmat qiladigan, ayni vaqtda gap bo`lagi vazifasida keladigan so`z; nisbiy so`z.
52	So`roq olmoshi	प्रश्नवाचक सर्वनाम	Interrogative	Вопросительное местоимение	No`malum shaxs, predmet, belgi kabilar haqida so`roqni bildiruvchi olmoshlar.
53	Sifat	विशेषण	Adjective	имя прилагательное	Predmet belgisini bildiruvchi so`zlar turkumi. Grammatikada belgi so`zi keng tushuncha bo`lib, u rang, ta`m, hajm, xususiyat va shu kabilarni bildiradi.
54	Asliy sifatlar	गुणवाचक विशेषण	Adjective of quality	Качественное прилагательное	Predmet belgisini bevosita, boshqa predmetga nisbat qilmagan holda ifodalaydigan sifatlar.
56	Fe`l	क्रिया	Verb	глагол	Harakat bildiruvchi so`zlar turkumi. Grammatikada harakat juda keng tushunchaga ega bo`lib, u yugurmoq, sakramoq, uxlamoq, yig`lamoq, sevmoq, o`ylamoq, tinchimoq va shu kabi fe`llarni bildiradigan harakat hodisalarni nazarda tutadi.
57	Fe`l asosi	क्रिया का धातु	Root	основа глагола	Infinitivdan ना qo`shimchasi olib tashlansa, fe`lning asosi qoladi. Masalan: करना – कर, लिखना – लिख. Fe`l asosi ko`pgina fe`l shakllarini yasashda xizmat qiladi.
58	O`timsiz	अकर्मक	Transitiv	Неперех	Harakatning vositasiz

	fe`llar	क्रिया	e	одные глаголы	to`ldiruvchi ifodalaydigan predmetga yo`nalishni bildiradigan fe`l. Masalan: joylamoq (yuklarni), hozirlamoq (asboblarni).
59	O`timli fe`llar	सकर्मक क्रिया	Intransitive	Переходные глаголы	Vositasiz to`ldiruvchini bohqara olmaydigan fe`l. Masalan: kel, yur, qol.
60	Nisbat	वाच्य	Voice	Замог	Harakatning subyekt va obyektga munosabatini bildiruvchi grammatik kategoriya. Masalan: ko`rdi-harakat bevosita subyektning o`zi tomonidan bajarilishi ifodalanadi; ko`rsatdi-harakatning bevosita bajaruvchisi boshqa shaxs ekanligi ifodalanadi; ko`rindi-harakatning subyektning o`ziga obyekt sifatida qaratilgani ifodalanadi; ko`rildi-harakatning bajaruvchisi noaniq tarzda ifodalanadi.
61	Aniq nisbat (daraja)	कर्तनाच्य	Active voice	Действительный залог	Bajaruvchisi aniq bo`lgan ish harakatga aniq nisbat deyiladi.
62	Majhul nisbat (daraja)	कर्मवाच्य	Passive voice	Страдательный залог	Aniq e`tiborni harakatni bajaruvchiga emas, balki obyekt bilan harakatning o`ziga qaratuvchi nisbat.
63	Zamon	काल	Tens	время	Harakatning nutq paytiga munosabatini bildiruvchi grammatik kategoriya.
64	Sifatdosh	कृदंत	Participle	причастие	Fe`lning sifatga xos vazifaga xoslangan, predmet belgisini ko`rsatuvchi funksional shakli.

65	Notugal sifatdosh	अपूर्ण कृदंत	Participles	Несовершенное причастие	Sodda notugal sifatdosh fe`l asosiga -ता qo`shimchasini qo`shish bilan yasaladi. Masalan: करता-qilayotgan, लिखता-yozayotgan. Sodda notugal sifatdosh jins va sonda o`zgaradi.
66	Tugal sifatdosh	पूर्ण कृदंत	Perfective participles	Совершенное причастие	Sodda tugal sifatdosh fe`l asosiga -आ qo`shimchasini qo`shish bilan yasaladi. Masalan: बोलना – बोला, कहना – कहा; fe`l asosi unli harf bilan tugagan bo`lsa, u holda -आ qo`shimchasidan oldin य harfi yoziladi. Sodda tugal sifatdosh jins va sonda o`zgaradi.
67	Oddiy hozirgi zamon	सामान्य वर्तमान काल	Simple present tense	настоящее обычное время	Oddiy hozirgi zamon asosiy fe`lining sodda notugal sifatdoshiga होना fe`lining hozirgi zamon sodda shakllarini qo`shish bilan yasaladi. Oddiy hozirgi zamon, odatda, doimiy, muntazam holda bo`lib turuvchi ish harakatni bildiradi.
68	Yuklama	अव्यय	Particle	Частица	Ayrim gap bo`lagiga yoki gapga bir butun holda qo`shimcha ma`no ifodalash uchun xizmat qiladigan yordamchi so`z.
70	Kuchaytiruvchi	बलवर्धन	Emphatic particles	Усилительные	O`zi aloqador bo`lgan gap bo`lagi ma`nosiga diqqatni

	yuklama	अव्यय		частицы	tortish uchun, uni kuchaytirish uchun qo'llanadigan yuklamalar.
71	Sonni anglatuvchi so'zlar	संख्यावाचक शब्द	Lexical symbols of plural forms	слова, обозначающие числа	Predmetning miqdorini, sanoq jihatdan tartibini bildiruvchi so'zlar turkumi.
72	Sanoq sonlar	गणनावाचक संख्या	Cardinal numerals	Количественные числительные	Predmetning sanog'ini bildiruvchi miqdor sonlar. Bir, ikki, besh, to'qqiz kabi.
73	Tartib sonlar	क्रमवाचक संख्या	Ordinal numerals	Порядковые числительные	Predmetning sanoq jihatdan tartibini bildiruvchi sonlar.
74	Jamlovchi sonlar	समूहवाचक संख्या	Collective numerals	Собирательные числительные	Predmet miqdorini jamlash yo'li bilan bildiruvchi son.
75	Oddiy o'tgan zamon	सामान्य भूतकाल	Past tense	прошедшее обычное время	Oddiy o'tgan zamon fe'li yetakchi fe'lining sodda notugal sifatdoshiga होना fe'lining o'tgan zamon sodda shakllarini qo'shish bilan yasaladi.
76	Ravishdosh	पूर्वकालिक कृदंत	Participle	Деепричастие	Fe'ning ravishga xos vazifaga xoslangan, harakatning belgisini ko'rsatuvchi funksional shakli. Ravishdoshlar harakatning belgisini turli jihatdan, masalan payt nuqtai nazaridan, holat, maqsad nuqtai nazaridan va h.k.larni aniqlab keladi.
77	Murakka b poslelog	संबंधबोधक	Post position	Сложный послелог	

78	Bog`lovchi	समुच्चबोध क	conjunction	Союз	Ergash gapni bosh gapga bog`lash uchun xizmat qiladigan, ayni vaqtda gap bo`lagi vazifasida keladigan so`z.
79	Zamon	काल	Tense	Время	Harakatning nutq paytiga munosabatini bildiruvchi grammatik kategoriya.
80	Oddiy kelasi zamon	सामान्य भविष्य काल	Future tense	Будущее общее время	Oddiy kelasi zamon kelasi zamonda bajariladigan ish-harakatni bildiradi.
81	Tugal hozirgi zamon	पूर्ण वर्तमान काल	Present Percussive Tense	Настоящее совершенные	Tugal hozirgi zamon ish-harakatning o`tgan zamonda bo`lib tugallanganligini va uning natijasi so`zlashuv paytida mavjud yoki dolzarb ekanligini bildiradi. O`tgan zamonda bo`lib o`tgan ish-harakatning natijasi hozirgi payt bilan bog`liqligi nazarda tutiladi.
82	O`tgan protsessiv zamon	घटमान भूतकाल	Past Percussive Tense	Прошедшее процессивное время	O`tgan protsessiv zamon fe`li o`tgan zamonning ma`lum bir paytida sodir bo`lib turgan ish-harakatni bildiradi.
83	Qo`shma fe`l	संयुक्त क्रिया	Compound verb	Сложный глагол	Birdan ortiq ifodalangan kesim.
84	Yuklama	अव्यय	particle	частица	Ayrim gap bo`lagiga yoki gapga bir butun holda qo`shimcha ma`no ifodalash uchun xizmat qiladigan yordamchi so`z.
85	Shart ergash gapli qo`shma	संकेतवाचक वाक्य		Условное предложение	Bosh gapdan anglashilgan ish-harakat, voqea-hodisaning yuzaga kelish shartini bildiruvchi ergash

	gaplar				gap.
86	Bog`lovchi	समुच्चबोध क	Conjunction	Союз	Ergash gapni bosh gapga bog`lash uchun xizmat qiladigan so`z.
87	Sifatdosh	कृदंत	Participle	Причастие	Fe`lning sifatga xos vazifaga xoslangan, predmet belgisini ko`rsatuvchi funksional shakli.
89	Tugal sifatdosh	पूर्ण कृदंत	Perfective participles	Причастие совершенного	Sodda tugal sifatdosh fe`l asosiga –आ qo`shimchasini qo`shish bilan yasaladi. Masalan: बोलना – बोला, कहना – कहा; fe`l asosi unli harf bilan tugagan bo`lsa, u holda –आ qo`shimchasidan oldin य harfi yoziladi. Sodda tugal sifatdosh jins va sonda o`zgaradi.
90	Tugal o`tgan zamon	पूर्ण भूतकाल	Past simple tense	Прошедшее совершенное время	1.Tugal o`tgan zamon o`tgan zamonda bir marotaba sodir bo`lib o`tgan va tugallangan ish-harakatni bildiradi. 2.Tugal o`tgan zamon fe`li ikki yoki undan ortiq bir martali va ketma-ket sodir bo`lib o`tgan ish-harakatni anglatishi ham mumkin. 3.U o`tgan zamonda takrorlangan yoki uzoq davom etgan va tugal ish-harakatni anglatishi ham mumkin.
91	O`timsiz fe`l	अकर्मक क्रिया	Transitive	Непереходный глагол	Harakatning vositasiz to`ldiruvchi ifodalaydigan predmetga yo`nalishni bildiradigan fe`l. Masalan:

					<i>joylamoq</i> (yuklarni), <i>hozirlamoq</i> (asboblarni).
92	O'timli fe'l	सकर्मक क्रिया	Intransiti ve	Переход- ный глагол	Vositasiz to'ldiruvchini bohqara olmaydigan fe'l. Masalan: kel, yur, qol.
93	Ega	उद्देश्य	Subject	Подлежа- щее	Ikki tarkibli gaplarda fikrni kimga, nimaga qarashli ekanini anglatuvchi, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan, grammatik jihatdan mutlaq hokim bo'lakka ega bo'lgan bosh bo'lak. Ega bosh kelishik shaklidagi ot, olmosh, otlashgan so'z, so'z birikmasi bilan ifodalanadi.
94	Kesim	विधेय	Predicate	Сказуем- ое	Gapda predikatsiya ifodalab keluvchi bosh bo'lak. Ikki tarkibli gaplarda ega bilan ifodalangan shaxs, predmet, hodisaning belgisini tasdiq yoki inkor yo'li bilan anglatuvchi bosh bo'lak.
95	Ort ko'makc hi	विभक्ति	Post position	Послело- г	Hindiy tilida ort ko'makchilar uchga bo'linadi: oddiy, qo'shma va murakkab. Oddiy ort ko'makchilar yettita: का, को, मैं, पर, से, तक, ने
96	Uzoq o'tgan zamon fe'li	पूर्ण भूतकाल	Past perfect tense	Предпро- шедшее время глагола	Uzoq o'tgan zamon fe'li o'tgan zamonda bajarilagan va tugagan ish-harakatni bildirib, bu ish harakat tamom bo'lganidan so'ng ma'lum bir vaqt o'tganligini yoki boshqa ish-harakat yuz berganligini ko'rsatadi.

97	Protsessi v sifatdosh	घटमान कृत	Recessive participles	Процессивно причастие	Protsessiv sifatdosh asosiy fe`lning asosiga रहना fe`lining sodda tugal sifatdoshini qo`shish bilan yasaladi. Protsessiv sifatdosh jins va sonda o`zgaradi.
98	Hozirgi protsessiv zamon	घटमान वर्तमान काल	Present percussive tense	Настоящее процессивное время	Hozirgi protsessiv zamon asosiy fe`lning protsessiv sifatdoshiga होना fe`lining hozirgi zamon sodda shaklini qo`shish bilan yasaladi. Hozirgi protsessiv sifatdosh so`zlashuv paytida sodir bo`layotgan ish harakatni bildiradi.
99	Ot tarkibli qo`shma fe`llar	नाम धातु संयुक्त क्रयाँ	Compound verbs formed out of nouns	Сложные отыменные глаголы	Ot tarkibli qo`shma fe`llar ikki bo`lakdan iborat bo`lib, birinchisi- ot, ikkinchisi- fe`ldir. Qo`shma fe`lning ot bo`lagi vazifasida ot, sifat, ravish ishlatilishi mumkin. Birinchi bo`lak ish-harakat yoki holatning mazmunini ifodalaydi.
100	Fe`l tarkibli qo`shma fe`llar	क्रिया धातु संयुक्त क्रयाँ	Compound potential verbs	Сложные отглагольные глаголы	Fe`l tarkibli qo`shma fe`llar ikki yoki undan ortiq sodda fe`llarning birga kelishidan yasaladi. Birinchi fe`l odatda asosiy ma`no anglatuvchi hisoblanadi. Ikkinchi fe`l yasovchi vazifasini bajaradi. U birinchi fe`lning mazmunini xarakterlab, aniqlab, ayrim qo`shimcha ma`nolarni kiritadi. Fe`l tarkibli qo`shma fe`llarda asosiy ma`no anglatuvchi fe`l o`zak, sifatdosh va boshqa

					shakllar holida ishlatiladi. Ma`no anglatuvchi fe`lning o`zagi bilan quyidagi qo`shma fe`llar yasaladi: potensiv, intensiv, kompletiv.
10 1	Qo`shma potensial fe`l	शकयताबाध क संयुक्त क्रिया	Potentials verb	Сложны е потенци альные глаголы	Qo`shma potensial fe`llar yetakchi fe`l asosiga सकना yasovchi fe`lining qo`shilishidan hosil bo`ladi. सकना – qila olmoq, biror narsani bajarish salohiyatiga ega bo`lmoq ma`nolarini bildiradi.
10 2	Qo`shma kompletiv fe`l	समाप्तिबाध क संयुक्त क्रिया	Complete verb	Сложны е комплет ивные глаголы	
10 3	Qo`shma intensiv fe`llar	अवधारणबो धक क्रिया	Compound intensive verb	Сложны е интенсив ные глаголы	Qo`shma intensiv fe`llar yetakchi fe`lning asosiga bir qator yasovchi fe`llarni qo`shish bilan yasaladi. आना, जाना, लेना, देना, डालना, बैठना, उठना, पढ़ना va h.k lar yasovchi fe`l vazifasida keladi. Birinchi to`rtta fe`l ko`proq yasaladi. Yetakchi fe`l qo`shma fe`lning lug`aviy ma`nosini anglatadi, yasovchi fe`l esa ish-harakatning to`liq tugaganlik, to`satdan, kutilmaganda bo`lganlik va boshqa qo`shimcha ma`nolarni bildiradi. Yasovchi fe`l yetakchi fe`l bilan ixtiyoriy ravishda bo`g`lanmaydi.

					Odatda o'timli fe'l o'timli fe'l bilan, o'timsiz fe'l o'timsiz fe'l bilan birga ishlatiladi.
10 4	Nisbat	वाच्य	Voice	Залог	Harakatning subyekt va obyektga munosabatini bildiruvchi grammatik kategoriya. Masalan: ko'rdi-harakat bevosita subyektning o'zi tomonidan bajarilishi ifodalanadi; ko'rsatdi-harakatning bevosita bajaruvchisi boshqa shaxs ekanligi ifodalanadi; ko'rindi-harakatning subyektning o'ziga obyekt sifatida qaratilgani ifodalanadi; ko'rildi-harakatning bajaruvchisi noaniq tarzda ifodalanadi.
10 5	Sifat	विशेषण	Adjective	Имя прилагательное	Predmet belgisini bildiruvchi so'zlar turkumi. Grammatikada belgi so'zi keng tushunchali bo'lib, u rang, maza tam, hajm, xususiyat va shu kabilarni bildiradi.
10 6	Sifat darajalari	विशेषणों की तुलना	Comparison of adjectives	Степени сравнения имён прилагательных	Hindiy tilida sifatlarning 3 darajasi mavjud: oddiy, qiyosiy, ortirma. Oddiy darajadagi sifatlarning biror narsani belgi yoki xususiyatini boshqasiga bog'liq bo'lmagan ravishda anglatib keladi.
10 7	Qiyosiy daraja	तुलनात्मक अवस्था	Comparatives	Сравнительная степень	Qiyosiy daraja biror narsa yoki shaxsning ikkinchisiga nisbatan ko'p yoki oz darajada u yoki bu

					<p>xususiyatga egaligini ko‘rsatadi. Hindiy tilida o‘zbek va rus tillaridagi kabi qiyosiy darajani ifodalovchi maxsus qo‘shimchalar yo‘q. Hindiy tilida sifatning qiyosiy darajasi analitik yo‘l bilan, ya’ni “ko‘proq, ortiq” ma’nosini bildiruvchi “अधिक” yoki “ज़्यादा” so‘zlari hamda sifat birikmasidan yasaladi.</p>
10 8	Orttirma daraja	उत्तम अवस्था	Superlati ves	Превос- ходная степень	<p>Orttirma daraja biror narsa yoki shaxsning boshqa o‘ziga turdosh narsa yoki shaxslar orasida eng ko‘p yoki eng kam xususiyatga ega ekanligini bildiradi. Orttirma daraja ikki xil usul bilan yasaladi:</p> <p>1. सब से va oddiy darajadagi sifatning qo‘shilishidan yasaladi.</p> <p>2. Oddiy darajadagi sifatni से ort ko‘makchisi bilan takrorlash orqali ham yasaladi.</p>

V. АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

I. Ўзбекистон Республикаси Президентининг асарлари

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом еттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 10 декабр “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1875-сонли қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июн “Олий таълим муасасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сонли Фармон
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 феврал “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрел “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарори.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябр “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 май “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сон Фармони.

14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июн “2019-2023 йилларда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида талаб юқори бўлган малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятини ривожлантири чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4358-сонли Қарори.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 август “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий етиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сонли Фармони.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябр “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябр “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармони.

18. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 25 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 16 апрелдаги “Шарқшунослик соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4680-сонли қарори.

20. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябр “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли қарори.

III. Махсус адабиётлар

21. Шоматов О.Н. Жанубий Осиё тилларига кириш. (1-қисм). –Тошкент, ТошДШИ, 2003.

22. Шоматов О.Н. Жанубий Осиё тилларига кириш. (2-қисм). –Тошкент, ТошДШИ, 2003.

23. Шоматов О.Н. Ўрганилаётган мамлакатда тил вазияти (Ҳиндистон ва Покистон). – Тошкент, ТошДИ, 2009.

24. Mirza Xalil Ahmad Beg.Urdu zaban ki tarix. Edukeshnal Buk Haus, Aligarh.2000.

25. Ишмухамедов Р.Ж., М.Мирсолиева. Ўқув жараёнида инновацион таълим технологиялари. – Т.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 б.

26. Муслимов Н.А ва бошқалар. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 208 б.

а. Қўшимча адабиётлар

27. Shomatov.O.N. Hindiy tili me'yoriy grammatikasi. O'quv qo'llanma – Т., 2010. – 112 bet.
28. Shomatov O.N. Lingvistik tadqiqotlar metodologiyasi. O'quv qo'llanma – Т., 2012. – 90 bet.

і. IV. Интернет сайтлар

- 29.<http://edu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги
- 30.<http://lex.uz> – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси
- 31.<http://bimm.uz> – Олий таълим тизими педагог ва раҳбар кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш бош илмий-методик маркази
- 32.Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги: www.edu.uz.
- 33.Бош илмий-методик марказ: www.bimm.uz
- 34.Таълим портали: www.ziyonet.uz
- 35.Тил ўрганиш веб сайти: www.tefl.net
- 36.Тил ўрганиш веб сайти: busyteacher.org